

*Umida ABDUAZIMOVA*



# BOG'LARDA BAHOR



Toshkent-2013  
"Chashma print"

UO'K: 821.512.1

KBK: 87 (6A)

A16 U.Abduaazimova

"Bog'larda bahor" /she'rlar/

U. Abduaazimova. / "Chashma print",  
2014-160 bet

Yaqin orada keng dalalar bag'riga chiqdingizmi? Gullar iforini sezib, maysa gilamlarda kezib, hayot qadriga yetdingizmi? Osmon bilan qirlar tutashgan manzillarda o'zingizni shod etdingizmi?..

Gullar bilan so'zlashib,

Gulga aylanib qoldim,-deb yozadi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, "Shuhrat" medali sohibasi shoira Umida Abduaazimova. Kitobni o'qisangiz, har bir she'rda gul madhi, Navro'z shodiyonasi borligini sezasiz. Xayolan gulu gulzorlar kezasiz. Xotiralar uyg'onadi, Ko'ngil yo'qotganlaridan kuyunib, topganlaridan quvonadi....O'qing, turli yillarning turfa fasilda bitilgan satrlarning his-hayajonlariga sherik bo'ling.

**ISBN 978-9943-354-57-9**

©Umida ABDUAZIMOVA

© "Chashma print" – Toshkent-2013

## **UMID QO'SHIG'I**

*Tezroq bahor kela qolsa,  
Kela qolsa gulbahor.  
Sho'x suvlarga to'la qolsa,  
Muzlab yotgan shu anhor.*

*Sumalaklar erib oqsa,  
Tarnovlarni to'ldirib.  
Quyosh mayin-mayin boqsa,  
Binafshani kuldirib.*

*Echib qalin kiyimini,  
Er nafasin rostlasa.  
Qushlar qo'yib tinimini,  
Quvnoq torin sozlasa.*

*Soz bo'lardi, soz bo'lardi,  
Kela qolsa ko'klamim.  
Quvonchlarga dil to'lardi,  
Chiqqanday ilk to'plamim.*

*Kuylagim bor zavqqa to'lib,  
Qadam-shaxdam, qaddim-g'oz.  
Kelajakka maftun bo'lib,  
Intiq yashash qanday soz!..*



## **SALOM**

O'zbekiston-ota *yurt*,  
*Go'zal*, *jannat misoldir*.  
*Unda ajib tarovat*,  
*Kunda diydor, visoldir*.

*Yal-yal yongan qizg'aldoq*  
*Qulog'ingga, yor, baldoq*.  
*Loladan qadah tutgan*,  
*Pomir, Oltoy, Hisordir*.

*Chimyonning etaklari*  
*Yoshlikka etaklaydi*.  
*Orzumand ul cho'ponlar*  
*Kuy-qo'shiqqa nisordir*.

*Salom, aziz tog'larim*,  
*Bugun sizga chog'landim*.  
*Ezgu his-la eshilgan*  
*Niyatlarim bisyordir*.

*Siz mendan uzoqlashmang*,  
*Meni suyab, tog' qiling*.  
*Yovlarga tuzoq tashlang*,  
*O'z yog'ida dog' qiling*.

## ***BU OLAMDA***

*Bu olamda mening ham  
Suyganlarim bor.  
Mehru muhabbatimni  
Tuyganlarim bor.*

*Sevinchimga sheriklar,  
Sevinchim-la tirkilar,  
Qayg'u - alamlarimdan  
Kuyganlarim bor.*

*Ochib dilim baxrini,  
Sochib dardim qaxrini,  
G'amim bilan bag'rini  
O'yanlarim bor.*

*Xayr, deb aldog'larga,  
Kel, deya ardoqlarga.  
Quvonchimni tog'larga  
Uyganlarim bor.*

*Beg'ubor, bag'ri bahor,  
Elim, yurtim bor.  
Men ulardan ayrilmay,  
Yashay baxtiyor, toki umrim bor!*

**AZIZIM**

*Azizim, ishon sendan  
Ko‘ρ narsa so‘ramayman.  
Bezib ketmaysan mendan,  
Yolg’onga o‘ramayman.*

*Xohlasang gullarni uz,  
Xohla, yulduzga bo‘yla.  
Xohlasang, ko‘nglingni uz,  
Gulu gulyuzga bo‘yla.*

*Dildagi gaping yorsang,  
Yorishgan dilim cho‘g’dir.  
Olamda muhim narsa  
Chunki hech qachon yo‘qdir.*

*Azizim, faqat mendan  
Ayama rost so‘zingni.  
Dunyoda yashab chindan,  
Halol top rizq-ro‘zingni.*

*Axir men bu ochunda  
Mardlik tarafdoriman.  
Shu uchun aro kunda  
Firoq giriftoriman...*

***BEBAHOR***

*Suylar to‘lib oqmoqda,*

*Bahor keldi, azizim.*

*Quyosh kulib boqmoqda,*

*Bahor keldi, azizim.*

*Qushlar qo‘sishq aytmoqda,*

*Bahor keldi, azizim.*

*Turnalar ham qaytmoqda,*

*Bahor keldi, azizim.*

*Bulut salqib namlandi,*

*Dillar shod ko‘klamlandi,*

*Gul-g’unchalar jamlandi,*

*Bahor keldi, azizim.*

*Nega cho‘g’ xotiralar*

*Bormoqdalar susayib?*

*Nimaga kunlarimdan*

*Tunlar borar uzayib?*

*Chunki bir-birimizning*

*Qasdidamiz, bu bahor.*

*Bitta osmon, bir quyosh*

*Ostidamiz bebahor...*

**ALYOR**

*Qo'shiq aytgim keladi,  
Jo'shib aytgim keladi.  
Muhabbatim, mehrimni,  
Qo'shib aytgim keladi.*

*Keling, birga kuylaylik,  
Yaxshilikni o'ylaylik.  
Baxtimizdan, taxtimizdan,  
Ahdimizdan so'ylaylik.*

*Halol yashab, xalq bo'lib,  
Halovatlar tuyaylik.  
Ota-onas, do'st-yorni  
Boshimizga qo'yaylik.*

*Ko'nglimning ashulasi,  
Ko'zlarimning shu'lasi,  
Menga behad keraksiz,  
Siz-suv, havo, yurak-siz.*

*Siz bog'imda gul bo'ling,  
Gul bo'lsam, bulbul bo'ling.  
Bo'lishib bir mayizni  
Esak hayot fayzli!*

## O'YNADING

*Gir aylanib o'ynading,  
Chir aylanib o'ynading,  
Yigitlarni lol qilib,  
Bir aylanib o'ynading.*

*Ko'zlar ko'zingda qoldi,  
Shirmoy yuzingda qoldi.  
Ko'ngil qushi havolab,  
Dilbar, o'zingda qoldi...*

*Bog'imdan gul uzding yor,  
Borlig'imda suzding yor.  
Nozik qilib yurakka,  
Ishq rasmini chizing yor.*

*Endi o'chirib bo'lmas,  
Yoki ko'chirib bo'lmas,  
Bu qilgan gunohingni  
Aslo kechirib bo'lmas.*

*O't tushdi shirin jonga,  
Dilni olding nishonga.  
Endi o'zing oro kir,  
Yorim bo'lib ishongan.*

***ILK SEVGING***

*Bahor ko'z-ko'z qiladi ko'rkin,  
Havosiga qonaman to'yib.  
Gullar xanda qiladi, birin  
Uzib olgim keladi suyib.*

*Gul uzmoqlik... Dilda hayajon,  
Xayollarga tolib ketaman.  
Bulbul jo'shib kuylaydi shodon,  
Kuylar bilan qolib ketaman.*

*O'zga yurak yonishlariga  
Bu kun ilk jo'r bo'lgan yuragim  
Bulbullarning xonishlariga  
Befarq qarab tura olmas jim.*

*Kular gullar, gullarmi ular,  
Yo'q-yo'q, yuzing boqishlaring-ku.  
Yurak jo'shar, yurak hapqirar,  
Vujudimni qamrar bir tuyg'u.*

*Bahor bilan qalbga kirding sen,  
Yurakda ilk sevgi to'lishdi.  
Juda-juda orzulayman men  
Sening ham ilk sevging bo'lishni...*

## ***IZHOR***

*Dunyo, bugun go'zalsan buncha,  
Toza havo, bog'lar beqasam.  
Go'zallikni qachondan shuncha,  
O'z bag'ringda etding mujassam?*

*Ilgari ham ayt, ey, sen bulbul,  
SHunday shirin kuylaganmiding?  
Qulog'imga nelarnidir el,  
SHivir-shivir so'ylaganmiding?*

*Menga tanish, notanishlar ham,  
Mehrin tashir boqqanim sari.  
Tugun tushgan turfa ishlar ham  
Eshilgudek muloyim, mayin.*

*Hayrat bilan qarayman har yon,  
Hammasini ko'rganday endi.  
Mavjudotni etib lol, hayron,  
Go'yo g'amgin nag'malar tindi.*

*Hayronligu hayrat boisi -  
Dil izhorin tingladim yorning.  
Endi meni kim ham koyisin,  
Men shohiman ul vafodorning!*



## KUNDAN KUN

*Kundan-kun gul ochadi bahor,  
Kundan-kun soz, maroqli hayot.  
Kundan-kun baxt, tole bo'lib yor,  
Yuragimga bog'laydi qanot.*

*Uchgim kelar, ko'k quchgim kelar,  
Quyosh porlab tursa boshimda.  
Bulbul bo'lib men jo'shgim kelar,  
Qushlar sayrab tursa qoshimda.*

*Men zavqlanib yashasam, qarang,  
Osmonimdan bulutlar arir.  
Baxt kuyidan torlarim tarang,  
Anduhlarim kichrayar, qarir.*

*Guldek yashnab, o'lkam quchog'in,  
Gul-lolaga to'ldirib yashay.  
Lovullatib yoshlik o'chog'in,  
Yoshli ko'zni kuldirib yashay.*

*Kulgulardan qayg'u hech bo'lar,  
Maroqli ham ardoqli hayot.  
Kimga quvnoq kulgu esh bo'lar,  
Osmonlarda qoqadi qanot.*

## **TIK TURARMAN**

*Vujudimda tuyg'ular jangi,  
Savr oyin chaqin, jarangi.  
Qarg'a-zog'lar aro, qarangki,  
Bulbullarning torin tarangi.*

*Vujudingni kemiraman, dil,  
Kulfatingni simiraman, dil.  
G'unchaydim gul bo'ldim muttasil,  
Meva berib semiraman, dil.*

*Yer to'yarmi to'kilsam tutdek,  
Tik turarman borlig'im butdek.  
Vujudimda tuyg'ular o'tdek,  
Qanotlarim chayir burgutdek.*

*Qarolanmoq, yorishmoq nega?  
Xazonlarga qorishmoq nega?  
Xazonim ham mevamga ega,  
Gul umrimga solmagan chega.*

*Toqqa chiqdim, tushdim ba'zan chox,  
Izzam ketdi, ketdi mazam goh.  
Uzlatimdan aylagin ogoh,  
Umidvorman o'zingdan, ALLOH!..*

**MEN MEN BO'LIB**

*Gullarning hush bo'yini tuyib,  
Qumrilarning kuyini suyib,  
Qo'shnim quvonchidan quvonib,  
Kulfatidan ezilib, kuyib,  
Men men bo'lib yashashim kerak.*

*Kimlarnidir qarzdor qilib men,  
Qulligidan arzdor qilib men,  
Halol bilan haromni anglar  
Vujudini farzdor qilib men,  
Men men bo'lib yashashim kerak.*

*Tosh urishsa olov chiqar deb,  
Urishqoq yurt fayzin yiqrar deb,  
Yaqinlashsang qozon qorasi  
Sizu bizga albat yuqar deb,  
Men men bo'lib yashashim kerak.*

*Tarangdir biz sozlagan torlar,  
Har yurakda har-xil oh-zorlar.  
Ammo mening yurak so'zimni  
Eshitadi yuragi borlar,  
Men men bo'lib yashashim kerak.*

## ***SHUNDAY DEDI QIZLAR***

*Meni yo‘qlab kelibsan kecha,  
Kelmog’ing yo‘q edi o‘yimda.  
Yo‘qligimdan nolibsan picha,  
Kelganmishsan yonib kuyimda,  
Shunday dedi qizlar tushmagur.*

*Ko‘zlariningda chaqnagan olov,  
Har yurakka g’uluv solarmish.  
Senga kimki qarasa birrov,  
Hayajoning bilib olarmish,  
Shunday dedi qizlar tushmagur.*

*So‘zlarining ham qovushmay sira,  
Sirlaringni oshkor etarmish.  
Qo‘llaringda gullarmish sara,  
Bari menga, menga atalmish,  
Shunday dedi qizlar tushmagur.*

*Umid bilan deb "zora kelsa",  
Yo‘llarimga bo‘libsan mahtal.  
O‘yimga o‘y, qalbimga esa  
O‘t-olovni qalashib battar,  
Shunday dedi qizlar tushmagur...*



## **QORAKO‘Z**

*Senga holis baxt tilab,  
Gul tutaman, qorako‘z.  
Do‘s t bo‘lishga dil talab,  
Dil tutaman, qorako‘z.*

*Kulgularim, tuyg’ularim,  
Yashirmovdim do‘s bilib.  
Bo‘lsin deya mening yorim,  
Sen saylabsan dil ilib.*

*Kechir, qalbing men egasi  
Bo‘lgan bo‘lsam begumon.  
Men uyingning chin bekasi,  
Bo‘lolmayman, ha, inon.*

*Chunki men ham bir toza dil,  
Erkasiman, bekasi.  
Sen ham menga baxt tilagil,  
Bo‘lib xolis akasi.*

*Rahmat senga barisi-chun,  
Senga og’ir, og’ir-a?..  
Sen sevibsan, mayli, ishqdan,  
Qolsin do‘slik - xotira.*

## **TUSHIMDA**

*Bugun seni tushimda ko‘rdim,  
Yurganmishmiz baland tog'larda.  
Hushlarimni yo‘qotib turdim,  
Ko‘zlar to‘qnash kelgan chog'larda.*

*Sharsharalar shabbodasidan,  
Haqqushlarning nag'ma, sasidan,  
Qizqaldoqlar aldoq isidan,  
Vido edi oniy ohlarda.*

*Visolingda yig'may hushimni,  
Hech kimsaga bermay tushimni,  
Senga derdim, tushun, tushungin,  
Yuribmiz-a, baland tog'larda!*

*Martabamiz balanddir bizning,  
Baxtimiz ishq bilandir bizning.  
Qo‘limga qo‘n, yo bergil izn,  
Quvnay o‘zing qo‘ngan shoxlarda.*

*Tushimda ham quvnab hamon man,  
Baxtimdan shod edim tamoman.  
Rahmat derdim, taqdir, zamonam  
Seni berdi ko‘ngil xohlarda!..*



## ***SHU EMASMI?***

*Momiq to'nin echganda olam,  
Orziqqanda epkindan dalam,  
Yaproq yoysa qir guli - lolam,  
Shu emasmi o'zi gulbahor?*

*Dimog'larda anqir xushbo'y is,  
Ko'kka o'rlar qo'shib bo'y yalpiz,  
Navolanar shoxlab har sabz,  
Shu emasmi o'zi gulbahor?*

*Gulni qilib raqsga taklif,  
Tebrantirib har dilni latif,  
Ahvol so'rар kapalak tabib,  
Shu emasmi o'zi gulbahor?*

*Oltin tanga sochgan qoqigul,  
Dov-daraxtning har bir shoxi gul,  
Majnuntolning sochlari sunbul  
Shu emasmi o'zi gulbahor?*

*Ona yer qon tomiri soylar  
Qayga chopar, daraxtlar poylar.  
Mo'jizali kun, hafta, oylar,  
Shu emasmi o'zi gulbahor?*

## ***SENI KUTDIM***

*Seni kutdim betoqat yurib,  
Kutgan kabi katta bayramni.  
O‘ylarimdan sirli ug qurib,  
Tuzab qo‘ydim nurli xonamni.*

*Oppoq gullar taqib erinmay,  
Ayab kiydim kuylagimni ham.  
Kimlar yonib so‘rashdi, bermay,  
Ayab qo‘ydim yuragimni ham.*

*Ayab qo‘ydim kulgularimni,  
Tuyg‘ularga erk bermadim men.  
Tunlar buzib uyqularimni  
Palak tikdim oy husniga teng.*

*Seni kutdim, nur kabi ravshan,  
Quyoshdek cho‘g‘ tasavvur qilib.  
Endi bilsam kelar emishsan,  
Menga tomon oshiqib, elib.*

*O‘sha mushtoq kunlarim uchun  
O‘tgan kuning hisobin olay.  
Xuzuringga qush kabi uchib,  
Sening bilan so‘ng birga qolay.*



## **MEZBONI BO'LING**

*Siz huvillab qolgan dilimning*

*Sadoqatli posboni bo'ling.*

*Nogahon lol qotgan tilimning*

*Parvoz aylar osmoni bo'ling.*

*To'lin oydek porlab yo'limning,*

*Mash'alasi, chirog'i bo'ling.*

*Bog'u bo'ston, sahro, cho'limning*

*Ham yaqin, ham yirog'i bo'ling.*

*Hayotimning bekatlari ko'ρ;*

*Injiq, nozli, cho'g', ehtirosli.*

*Siz bariga ayta qoling: "Xo'ρ!"*

*Siz-la men dol qaddimni rostlay.*

*Men huvillab qolgan dilimni,*

*Bor-yo'g'ingiz bilan to'ldiray.*

*Siz chamanga yo'llab yo'limni,*

*Bitmagan ishlarim bo'ldiray.*

*Saodatli mehmonim bo'ling,*

*Sadoqatli mezbonim bo'ling.*

*Sizga qarab bo'yim rostlayin,*

*Ochiq yuzli osmonim bo'ling.*

## **KO'KLAM XABARI**

*Tog'lardan keladi ko'klam xabari,  
Orzumand tuyg'ular ko'nglingni xushlar.  
Havasing keltirib gul-chechak bari,  
Lolaqizg'aldoqlar qo'lingni ushlar.*

*Shamollar chopadi-seni topadi,  
Bulutlar yig'adi, yog'adi yomg'ir.  
G'uboring yuvadi, aybing yopadi,  
Bag'ringga sig'adi, singgadi g'ir-g'ir.*

*Yasharish, yaralish ham yonish fasli  
Yurtim kengliklarin birdek zabit etmish.  
Ko'ngilning qushlari uyg'onib ketmish,  
Ularni uyg'otgan kurtaklar asli...*

*Men seni sevaman, yurtim shamoli,  
Orzulab shoshaman sen bilan qirga.  
Ko'ndalang bo'lganda yoz, kuz savoli,  
Men yoza boshlayman ismingni yerga.*

*Ona yer yastanib, yasanib borar,  
Xabarchi shamollar qutlar mevasin.  
Qarsakchi yaproqlar so'rар yolvorib,  
Buzmang, deb mushtarak hayot shevasin.*



## NAVBAHOR

*Atak-chechak qilib turgan navbahor,  
Navro'z bilan xushlashib xandon otdi.  
Xonish qilib turgan qushlar har nahor,  
Bog'lar kezib, ra'nolarga so'z qotdi.*

*Qoshlarida o'sma qizaloqlarning,  
Sochlariiga taqildi tolbargaklar.  
Yonog'i ol bo'ldi qizg'aldoqlarning,  
Qozonidan toshganda sumalaklar.*

*Turnalar qaytib keldi ertak olib,  
Varragin uchirgan bolakaylarga.  
Qo'shiqlar aytib keldi, kela solib,  
Sho'ng'ib oldi chuldiragan soylarg'a.*

*Halimdek momolarim halim tuyib,  
Xina qo'ygan qo'llarda mehr tutdi.  
Qo'ymasin deb osmonim qovoq uyub,  
Bobo dehqon oromini unutdi.*

*Baraka urug'lari tushdi erga,  
Saxovatin ayamaydi turprog'im.  
Pushaymonlar qorishmasin deb terga,  
Shartdir bunda men ham adl turmog'im.*

**BAHOR SHAMOLI**

*Ko‘ρ qo‘llar yetmagan sochlarni o‘ynab,  
Tortqilar qizlarning harir ro‘molin.  
Hayotbaxsh qo‘schiqlar kuylagan sho‘x ta‘b,  
Assalom bahorim, erka shamolim.*

*Qirlarga yetakla, ter, deb lolalar,  
Erkingni erklikka ulash bir muddat.  
Kuy olsin kuyingdan sho‘x shalolalar,  
Qalbimga qudrat ber, labimga jur’at.*

*Ko‘klam hislarni gul kabi qaday,  
Ifori bog'larga ketsin yoyilib.  
Men seni chinakam ishq deya atay,  
Qayg'ulaming izi ketsin qiyilib.*

*Bog'larda esaver sarsari, g’ir-g’ir,  
G'uncha-yu gullarga qo‘ru-ko‘rk berib.  
Bulutlar yig'ilsa, chaqin bo‘l yomg’ir,  
Yo do‘llar do‘mbira chalsa erk berib.*

*Suvini toshirgin anhor, ariqning,  
Yarlaqab dehqonning ezgu a‘molin.  
Uyg’otmoq bo‘l tezroq butun borliqni,  
Assalom bahorim, erka shamolim!*



## **NOMA'LUM KETGANLAR**

*Seni juda ko'rgim keldi navro'zda.  
Gul-chechaklar shu'lalanganda ko'zda.  
Ko'zlar ko'r, qulqar, qalbdagi muxr  
Taqnidu, tahqirdan liboslar to'qir.*

*E'tibor qilmasdan tanish, birovga,  
"Etarmi, etmasmi?" degan so'rovga.  
Chog'lanib qoldim men birdan safarga,  
Aylanib bir xovuch vaslu zafarga.*

*Xatini topshirgan xomush ayollar,  
Elkamga ortdi yuk, yumush, malollar.  
Yo'l oldim qaramay shomga, saharga.  
Manzili noma'lum, ma'lum shaharga.*

*Men shitob otidan tushmadim, kezdim,  
Bitta haqiqatni yurakdan sezdim:  
Biz haqda kim nima derkin, deganlar,  
Bizlardan ozod va erkin ekanlar.*

*Noma'lum ketganlar yurmaslar nolib,  
Qaribmas, g'aribmas, abadiy g'olib.  
Ming turli xayollar ichramas ular,  
Shu vajdan bizlarga uchramas ular.*

## **CHIROYLIKSAN**

*Chiroyliksanu, xunuk yashaysan,  
Xatolar qilib ko‘nikkandaysan.  
Sitam qilganni kechirding buncha,  
Darding ichingda, uniqqandaysan.*

*Ketdik tikansiz gul, gulzorlarga,  
Ta’ma, ta’nasiz bizga zorlarga.  
Biz qanday bo‘lsak shundayligicha  
Qabul qilguvchi ahdda borlarga.*

*Dunyolar kezib, manzili tanho,  
Hamrozi, rosti, hazili tanho,  
Toshqin suv, shamol, yomg’irda, qorda  
Yashayotganlar ta’ziri tanho.*

*Tanhilik bizga yarashmas sira,  
Jilmayib kelu, asta hol so‘ra.  
Daryolar boshi irmoqlardir, bil,  
Do‘stlikning boshi-tabassum, jo‘ra.*

*Chiroyliksanu, chiroyli yashab,  
Sadoqatli do‘st, bo‘l sabrli yor.  
Gina-qudratni orqaga tashlab  
Yashasak bormi bizdek baxtiyor?!.*



## **GUL YOSHIM BOR**

*Gul yoshim bor - o'n sakkiz yashar,  
O'n sakkizni sirli deyishar.  
Ha, sirlidir, sirli u albat,  
Kamand solsa dilga muhabbat.*

*Xayolimning quvonch, tashvishi,  
Hayotimning qo'ri, otashi  
Mangu olib u mening tinchim,  
Qalbga qo'noq, emas o'tkinchi.*

*Kunlarimni bahor qilgan u,  
Tunlarimni bedor qilgan u.  
Uni o'ylab, so'ylagan sayin,  
Men o'zimdan kechmog'im tayin.*

*Xar yurakda muhabbat yashar,  
Vatanimga, xalqimga, ammo.  
Bu muhabbat, muhabbatim, o...  
Kundan kun bir muammo tushar.*

*Bahor bo'lib barq urar, balqir,  
Yuragimda bir qoya qalqir.  
Gul yoshimni yo'qotganim dam,  
Yo'qotmasman aslo uni ham...*

## ***OSHIQLAR***

*Yolg'on so'zlamaydi oshiqlar,  
Ravo ko'rmanq kuz shamolini.  
Ko'ring Majnun ko'zi bilan siz,  
Laylining ul gul jamolini.*

*Kechalari tushlar ko'rарman,  
Tushlarimda qaysar parilar.  
Qaysar parilar ishqida ul  
O'ngim ham tushga ilgarilar.*

*O'zim bilan o'zim so'zlashib,  
Yuragim cho'g' toshga aylandi.  
Ko'rganmisiz toshning yonganin,  
Bor-yo'g'im bardoshga aylandi.*

*Suyganini suyma desangiz,  
Ko'nib bo'pti muhabbat ahli.  
Gulni ham, bulbulni ham birdek  
Quchib o'pdi muhabbat ahli.*

*Mening ham o'z olamim bordir,  
Olamimning podshohiman.  
Mehr qo'ygan odamim bordir,  
U bilan shod, noshod gohi man...*



## KO'RMABSIZ

*Kecha siz ham bo'libsiz bog'da,  
Ammo hech narsani ko'rmabsiz.  
Kunbotarni kunbotar chog'da  
Anglamabsiz, xolin so'rmabsiz.*

*Ko'rmabsiz kun tikka kelganin,  
So'ng ohista og'ib ketganin.  
Oh, bilmabsiz kunning bilganin,  
Oqibatda qayga ketganin.*

*Cho'g'langani cho'g'ingiz edi,  
Yig'lagani bulutligingiz.  
Yo'qlagani yo'g'ingiz edi,  
Bu dunyodan unutligingiz.*

*Kunning ko'zi - quyosh charaqlab,  
Boshingizdan shu'lalar sochdi.  
Sezmaditingiz tursa yaraqlab,  
Xo'mrayib tun varag'in ochdi.*

*Kecha siz ham bo'libsiz bunda,  
Hech narsani ko'rmabsiz ammo.  
Kunni ko'rmay o'tibsiz unda,  
Bunda boringiz ham muammo.*

## AJRATIB

*Ajratib bo‘lmaydi essiz,  
Gul - chechakni nish zaxridan,  
Baxtli bo‘lsang agar mensiz,  
O‘tgil edi yor, bahrimdan.*

*Katta yo‘llar kezib kelsang,  
Cho‘llar, ko‘llar kezib kelsang,  
Charchab, chatnab bezib kelsang,  
Portla edi yor, qahrimdan.*

*O‘zing mehr ko‘rguzmading,  
Mehr sezmas ko‘r ko‘zmiding?  
Visolingda turguzmading,  
Yurguzmading yo jahlimdan.*

*Qanday qaro kun edi, yor,  
Nima desa kim dedi, yor,  
Qo‘ldan ketdi bor ixtiyor,  
Ayrildim men bor aqlimdan.*

*Ajratib bo‘lmas ekan, rost,  
Gul-chechakni nish zaxridan,  
Endi dilda qo‘rquv xolos,  
Oxirat, Alloh qahridan..*



## **TONG OTMOQDA**

*Tong otmoqda, tun esa  
Ketmoqda oyi bilan.  
Qop-qorayib, bezovta  
To'lg'ongan soyi bilan.*

*Chirildoq chigirtkalar,  
Ertakchi ellar bilan.  
Xurkov ko'rshapalaklar,  
Xayiqqan dillar bilan.*

*Butun vujud qulinqqa  
Aylangandi vahmlab.  
O'z xolingdan kulmoqqa  
Vaqt etdi fahmlab...*

*Tong otmoqda, uniqqan  
Ranglarimni ochmoqqa.  
Ming shukr, tong tiniqqan,  
Tun sudralib qochmoqda.*

*Behalovat kutganim,  
Tong bilan tabriklayman.  
Dushmanimga tunlari  
Uyqusizlik tilayman.*

## **SOG'INARMAN**

*Baland-baland tog'larga  
Qirlar oralab chiqdim.  
Xayr,-deb gul bog'larga,  
Sizni qoralab chiqdim.*

*Lolaga o'ch qiz edim,  
Etak-etaklatdingiz.  
Eh, nimaga qo'l cho'zib,  
Toqqa yetakladningiz?!*

*Baland tog'larning qori  
Bag'rimga o'kinch soldi.  
Gul bog'larning viqori  
Fikrim o'g'irlab oldi.*

*Bildim, faqat lolalar  
Baxtimni but qilolmas.  
Qirlarim, bog'larimni  
Butkul unut qilolmas.*

*Sog'inarman men endi  
Saraton kechalari,  
Gupillab asfal't hid  
Anqigan ko'chalarni...*



## **BU GULLAR**

*Bu gullar qachon gullar,  
Qachon jilmayar, kular?  
Chaq-chaq urib qoshida  
Bulbul gullashin tilar.*

*Bu gullar qachon gullar,  
Bulbul o'yga toladi.  
Gullarning jim turishi  
Unga vaxm soladi.*

*Bulbul bag'ri xun bo'lib,  
Yayrashini bas qildi.  
Gullar kulmasa quvnab,  
Sayrashini bas qildi.*

*Bulbulning holi ayon,  
Oshiq tuyg'usi bayon.  
Gullar kulmasa o'zin  
Bilmas qo'ymoqqa qayon.*

*Bu gullar qachon gullar?  
Orzumanddir bulbullar.  
Muhabbatning vasfini  
Vaslin tuyganlar qilar.*

## **AYLANIB QOLDIM**

*Gullar bilan so‘zlashib,  
Gulga aylanib qoldim.  
Qushlar bilan so‘zlashib,  
Qushga aylanib qoldim.*

*Gullar bilan so‘zlashib,  
Xis qildim xayotini.  
Qushlar bilan so‘zlashib,  
O‘rgandim sabotini.*

*Chunki so‘zlashganimda,  
Ular bo‘lib yashadim.  
Ular yig’lasa yig’lab,  
Kulsa kulib yashadim.*

*Yig’lab kulmoqlikni bir  
Olib ko‘ring zimmaga.  
Udda qilolmasangiz,  
Gap qilasiz nimaga?*

*Tosh otasiz betinim,  
Ko‘rinmay yon-verimdan.  
Toshga aylanolmayin  
Tushmayman hovurimdan...*



## **YOMG'IRLI KUN**

*Sovuq shamol chimchilab,  
Yomg'ir yog'ar tomchilab.  
So'ng do'mbira chalvordi,  
Yeru ko'kni qamchilab.*

*Yomg'irli kun, yomg'irli,  
Turli ko'yda tolg'irli.  
Xalqob chatnar, loy sachrar,  
Rasvo kuyga solg'irli.*

*Sen yomg'irli kunda kel,  
Dil chalg'irli kunda kel.  
Yomg'ir aylanib do'lga,  
Yo muz, qorli kunda kel.*

*Ovutaman o'zingni,  
Cho'g'lataman ko'zingni.  
Menga aytgil, sog'inib  
"Keldim", degan so'zingni.*

*Qaytar dunyo, qayt yorim,  
O'z so'zingni ayt, yorim.  
Sog'inib ketdim seni,  
Yomg'ir yoqqan payt, yorim.*

## **BIRINCHI MUHABBATIM**

*Birinchi muhabbatim,  
Sen yoshlikning bebaho,  
Erta tongdek musaffo  
Hislariga o‘ralgan tuyg’um.*

*Birinchi muhabbatim,  
Meni qilib o‘yparast,  
Shirin kuylari-la mast,  
Uzoq tunlar qochirgan uygum.*

*Birinchi muhabbatim,  
Oftob nuridek iliq,  
Buloq suvidek tiniq,  
Sir, sehrga makon muhabbat.*

*Birinchi muhabbatim,  
Gul-g’unchalar ulfati,  
Tuganmas dil suxbati.  
Arshga ko‘tarilgan taxt.*

*Birinchi muhabbatim,  
Go‘yo gulga subhidam,  
Qo‘ngan beg’ubor shabnam,  
O‘chib ketma shabnamdek faqat.*



## BIR KIYINIB

*Bir kiyinib chiqay bu sahar!  
Yuzingizdan tomizib zahar,  
O'zingiz g'arq bo'lib keting unga.  
G'arqmisiz, yo'q bo'lib keting unda.*

*Bir kiyinib chiqay bu sahar!  
Ko'zlarining ko'rsin chiroyim.  
Bu jumboqqa berib ming shahar,  
Maftun bo'lib qoling, iloyim.*

*Ko'ylagimni oyning nuri desinlar,  
Ro'molimni quyosh qo'ri desinlar,  
Zolushka bergen tuflichalarim,  
Harir libos, siymu zarlarim!..*

*Qarashimdan gul o'kinadi,  
Qadamimdan gul to'kiladi.  
Sevgini sehrlab olaman,  
Ko'yaklarim, zarlarim bilan.*

*Nima qilay, sizni kuldirish,  
Quchog'ingiz baxtga to'ldirish,  
Sahar turib kiyinish emas,  
So'ng ko'zguda suyunish emas...*

## OYQIZ

*Oydan sovchi kelibdi Oyqizga,  
Bir siqim olmos tutib, boy qizga.  
Bog'in yashnatgan bog'bon bundan lol,  
Sevgim sarobdir deya aftodaxol.*

*Kapalaklar qo'liga qo'ngan qiz,  
Ota-onas ne desa ko'ngan qiz,  
Beparvomish o't purkar quyoshga,  
Yulduzlar to'kkani shabnam - ko'z yoshga.*

*Be'etibor yashab, voy, ajabbo,  
SHarroslar yomg'irlar qilgan shalabbo  
Ko'ylagini so'riga ilibdi,  
Bog'bonga noz-ishvalar qilibdi.*

*Debdi, gulni sevaymi, o'zim gul  
Men gulchi xayoliga bo'ldim qul...  
Boy qiz bog'bonini debdi,  
Eski shahar, Sog'bonini debdi.*

*Chamanini sevgan ul Oyqizni,  
Oshig'u xaridorga boy qizni,  
Biz ham sevib qoldik, u - yer qizi,  
O'g'lolar tug'ib berar yer qizi.*



## KELDIM

*Ko'rmaganimga ko'ρ bo'ldi yorim,  
Aytar gaplarim to'ρ bo'ldi, yorim.  
Yoqimli ovoz, nurli jamolga  
Istak-xohishim xo'ρ bo'ldi, yorim.*

*Shirin so'zlarining umrim tumori,  
Kulgularingning bo'ldim xumori.  
Arir vaslingdan hajr zahmati  
Dilga yuqtirgan gardu g'ubori.*

*Toshlarni yorib chiqdi boychechak,  
Sepini yoydi bahor - kelinchak,  
Orzularimni ko'kka yetkazar,  
Xarir xavolar kesib halinchak.*

*Gulu lolalar ter der bahorim,  
Qushlar kuyidan fayzli nahorim.  
Sening vaslingdan Arshu a'loga  
Ko'chgay uy, ko'cha, qishloq-shaharim.*

*Sog'inib keldim, sen sog'indingmu,  
Yulduz, quyoshim, mohim dedingmu?  
Taqdiri azal shukronasidan  
Boshim ko'klarda, shohim, dedingmu?..*

## **MALIKAM**

*Kulsangiz injular sochilar,  
Qarshimda chamanlar ochilar.  
Chamandan taralgan iforlar  
Atridan ariydi g'uborlar.*

*Siz ko'nglim ardog'i, malikam,  
Armonning adog'i, malikam,  
Siz borsiz, xilpirar ruximda,  
Muhabbat bayrog'i, malikam,*

*Bardoshni bahordan olib man,  
Siz bilan xamisha g'olibman.  
Yuragim toshiqar, negadir,  
Tinmayin oshiqar, negadir.*

*Ertaga holim ne kechadi,  
Bahorlar libosin yechadi...  
Otashin yoz kelar, keyin kuz,  
So'ng tanim titratar sovuq, muz.*

*Men sizni qishlarga bermasman,  
Sovuq, muz ushlarga bermasman.  
Siz mening malikam bo'lasiz,  
Bag'rimda oy bo'lib to'lasiz!*



## **RASHK QILIB**

*Yor, meni rashk qilib yashama,  
Yo‘q yerdan malomat yo‘ndirib,  
Quvonchim ashk qilib yashama,  
Yelkangga shaytonni mindirib.*

*Yoningda guldayin kulmayman,  
Yig’lay ham olmayman yurakdan.  
Sen bilan ishq nima, bilmayman,  
Ishqqa ham axir erk kerakdir.*

*Ajoyib kunlarning birida  
Portlayman bir vulqon misoli.  
Paranji chachvonni so‘rida  
Yondirgan hur Nurxon misoli.*

*Xolingga birovlar kuladi,  
Men esa yig’layman ichimdan.  
Yeru ko‘k norizo bo‘ladi,  
Sening-u mening bu ishimdan...*

*Yor, meni rashk qilib yashama,  
Dilingni g’ash qilib yashama,  
Orzumga g’ov bo‘lib yashama,  
Mavzumga dov bo‘lib yashama...*

## **BIZNING SIRNI**

*Majnuntolning tagida u kun,  
Iltijoli tikilding menga.  
Yuragimga solgancha tugun,  
Iztirobda o'kinding, nega?*

*Bizning sirni so'ylab yellarga,  
Shodon qarsak chalgan majnuntol.  
Mahzunliging yo'ydi nelarga,  
Turib qoldi hijolatda lol.*

*Nigohingni uzolmay mendan,  
Jovdiraysan nechun har tomon?  
Axir shuni istabdi Vatan,  
Axir shuni so'rabdi zamon.*

*Faxr etgil, kunlaring to'lar,  
Seni kutar katta ulug' yo'l.  
Ishq sof bo'lsa, hijron sob bo'lar,  
Qayda bo'lsang mayli, omon bo'l.*

*Men ham mag'rur yurarman bunda,  
Yorim Vatan qo'riqchisi deb.  
Sen ham meni eslab yur unda,  
Sadoqatning qo'shiqchisi deb.*



*Meni xandon chechaklarga oshno qildi shu sevgi,  
Xajru vasl-cho'pchaklarga tashna qildi shu sevgi.  
Goh olov, goh suvga otib o'ldirib tiriltirdi,  
Timmay dardim ulg'aytirib yashnay bildi shu sevgi.*

*Insu jinslar makrimi deb, o'yga tolsam jilmayib,  
Odamizod mehriman, deb yarash qildi shu sevgi.  
Yalt etib cho'g' ko'rinaru ko'zlarimga qo'r inar,  
Qaro tunim yoritgudek qarash qildi shu sevgi.*

*Muhabbatim kuy-qo'shiqqa solsam vasfin madh etib,  
Har qadama ta'qib qilib, qo'ymaydi tek shu sevgi,  
O'tga otib, uchqunimda kuymaydi lek shu sevgi.  
Yoki vaslin baxsh etmoqni suymaydi lek shu sevgi.*

*Qattiq yeru olis ko'kni yaqin qilgan shu sevgi,  
Meni sevgi fazosida chaqin qilgan shu sevgi.  
Cho'g' ilinji bilan kunni kech qilgan ham shu sevgi,  
Etganimda cho'g'i so'nib, hech qilgan ham shu sevgi.*

*Oydin-oydin tushim aro farah qilgan shu sevgi.  
Lek o'ngimda motamsaro karaxt qilgan shu sevgi.  
Bas Umida, odamlardek yasha fikring jam qilib,  
Degan chog'im, arzu ohim puch qilgan ham shu sevgi...*

## **BAHOR KELAYAPTI**

*Bahor kelayapti gul sepini yoyib, qarang.  
Subhidam shudringiga yuzini chayib qarang.  
Qor ko'rpasin yopingan ona yer uyg'onmoqda.  
Bir ilinjda xovliqqan orziqish bor tuproqda.*

*Harorat bor qushlarning qo'shiqlarin avjida.  
Quvonch tashib yugurgan jilg'alarning mavjida.  
Tog'lar g'ururi qorlar, ko'klamoyga qon tomir.  
Jonzotlar juftin chorlar oshyonin qilib ta'mir.*

*Qaldirg'ochlar vijirlab, tom yopishishga tushdi.  
Musichalar pichirlab, til topishishga tushdi.  
Toqqa qochgan lolaning alvonlanar yuzlari.  
Daraxtlarda bir imdod, to'kin, to'lin kuz sari.*

*Odamlarga bir boqing: ko'zlarida shu'la bor,  
Sevgini sevintirgan his ila a'shula bor.  
Ashulaga jo'r bo'ling, ishqli dilga qo'r bo'ling.  
Muhabbatda qulog kar, mayli, ko'zi ko'r bo'ling.*

*Mayli, Farhod misoli Chinga boring Shirin deb.  
Mayli cho'l kezing, bilay. Layli-Majnun sirin deb.  
Bo'lsa vaslu firoqli, hayot behad maroqli,  
Ertangi kun umidi bilan ko'ngil chiroqli.*



## KO'RINDIM

*Bir sirim bordirki, sirli ko'rindim,  
Siym-zarim bordirki, zirhli ko'rindim.  
Sen qaydan bilarsan ey, g'ofil inson,  
Ne uchun men sendan farqli ko'rindim?*

*Intilib qolibdi ko'zlarining hayron,  
Aylanmay qolgan til - so'zlarining biyron.  
Eh, mening nechundir bu dilim vayron,  
Ne uchun bir tilmoch, sharhli ko'rindim?*

*Men o'zi hech kimning moli emasdim,  
Hasaddan, havasdan holi emasdim.  
Gullarning mushk-anbar, boli emasdim,  
Men senga osmoniy narxli ko'rindim.*

*Dengiz edim, to'ydim jilg'ani ho'plab,  
Kumush irmoq, buloq, daryoni to'plab.  
O'chgan olov yonmas yursang puf-puflab,  
Qiziq, men senga baxt - taxtli ko'rindim.*

*Chaqmoq tosh qo'lingda, o't chiqmas, ammo  
Yana taloto'plar, yana muammo...  
Noshukr, befahm demagil hamma,  
Nainki bir so'zli, ahdli ko'rindim!*

## ***SHIRIN SO‘ZLAR***

*Qulog’imga shirin-shirin so‘zlar gapirding.*

*Quvonib goh sirli-sirli bo‘zlab gapirding.*

*Nurli-nurli manzillarni ko‘zlab gapirding,*

*Ol lablarmas, ol yonoqlar, yuzlar gapirdi.*

*Seni desam, yuragimda armonlar ehtirosli,*

*Yurmagimda, turmagimda darmonlar ehtirosli.*

*Nahot ortda qolsa davru davronlar ehtirosli,*

*Aro yo‘lda qolgay qaro so‘zlar gapirding.*

*Bir-birovni yaxshilikka boshlar ekanmiz,*

*Bir-birovga loyiq ko‘zu qoshlar ekanmiz,*

*Hayot qisqa, kel qo‘llardan ushlab yashaylik,*

*Ginalarni orqamizga tashlab yashaylik.*

*Do‘s<sup>t</sup> qo‘llardan tutib kundek balqib boramiz,*

*Shirin-shirin gapirmasak qalqib boramiz,*

*Men bir so‘zni bilib oldim, yuzlab gapirding,*

*Mendan ham sen shirin so‘zlar ko‘zlab gapirding.*

*Qo‘lni qo‘lga berib shunday bardam yashaymiz,*

*Ko‘zlar kulib, so‘zlar kulib har dam yashaymiz,*

*Bag‘ri kengdir bahra olsak ozod hayotdan,*

*Umidaning umri xurram vafo, sabotdan.*



## **BOG' ETAR**

O'zbekning asl o'g'li o'z yurtini bog' etar.  
So'zi rost, ko'zi cho'g'li, tushkun dilni chog' etar.  
Boshidadir Qur'oni, salomatdir imoni,  
Bandasi emas nafsning, shayton naslin choh etar.

Istiqlol kushandasin bit, burgadek qiyratib,  
Hurriyatga yuz burgan yurt dardin adog' etar.  
Sut oqar ariqlarda, umrbaxsh yorliqlarda  
Ayon bo'lgan haëtdan ertaroq ogoh etar.

O'z yog'ida qovurib, g'anim tanin sovurib,  
Shum niyat ro'shnosiga bir ishkal, chatoq etar.  
O'zbekning asl o'g'li, tili sof, dili cho'g'li,  
Oyga tinch osmonini xaqiqiy yotoq etar.

Ko'nglim sezib turibdi, quësh kezib yuribdi,  
Shu quyoshning ko'ngliga zavq-shavqidan oh bitar.  
Bu ohlar, bu qo'shiqlar, el-yurtiga chin ishqlar  
Aro ulg'ayar o'g'lon, oy yuzini dog' etar.

Nega oyga dog' tushdi, yo boshiga tog' tushdi,  
Bir musibat, bir g'amda qaddin ba'zan yoy etar?  
Degan har so'rovchiga, mashmasha o'rovchiga  
Jilmayib qarab o'g'lon, o'z yurtin panoh etar.  
Shayton naslin choh etar, yurt dardin adog' etar,  
Tushkun dilni chog' etar, o'z yurtin panoh etar...

## GIRDOR

Kundoshlilarga

*Men fikrlar girdobida band bo‘lib yursam,  
Yor tuyg’ular ummoniga g’arq bo‘lib ketdi.  
Xayollarim xayallatdi yor kutib tursa,  
Mana shundan o‘rtamizda farq bo‘lib ketdi.*

*Men-ku sodiq qoldim axdu-sadoqatimga,  
Bosib oldim o‘zimni erk, bermay g’azabga.  
Ba’zan yig’lab olar yor ko‘rsatmay xech kimga,  
Sezayapman, qolib ketdi juda azobga.*

*Vijdon ishi qiyin ekan, ammo vijdonni,  
Dog’ qilganlar juda katta xato qilar kan.  
Aytin faqat kim o‘tkazgan xuzurda jonni,  
Lek vijdonli vijdonsizga ato qilar kan...*

*Men fikrlar girdobiga band bo‘lib yurib,  
O‘z yonimga o‘z yorimni torta olmabman.  
Tuyg’ularga moyil yorni eh, sezal turib,  
Elkamga sho‘x tuyg’ularni orta olmabman.*

*“Baxtsiz bo‘lib qoldim endi”, deb, kimni suydim,  
Aslida-ku qayda ekan baxtning tayyori?  
Yuragimga barin ko‘mib, marmar tosh qo‘ydim,  
Yozib qo‘ydim, o‘zim buning bosh aybdori!*

*Umrning gulbahori, go'zal on-yoshlik.  
Sunbul shom, hur nahori, g'azalxon yoshlik.  
Bulbullarning hush sozi rom etsa ba'zan,  
Ba'zan burgut parvozi olar jon, yoshlik.*

*Talafot, malomati kimni qaritdi,  
Bardoshi, matonati g'amni aritdi.  
Avaylangan dunyomni topshirdim desam,  
Atirgul yaprog'ini bemahal yirtdi...*

*Go'zal yoshlik, gulingni behuda to'kma,  
Ifor tashib, nilufar, qirg'oqqa cho'kma.  
Avjingning mavjlarida sinmasin qanot.  
Kuzda gullab, bemahal mevalar tugma.*

*O'rik gulini ko'rib, yoqqan qor bo'lma.  
Bevaqt qovjirab, qurib, mung'ayib so'lma.  
Isrof qilib vaqtingni, berib taxtingni,  
Erta kuningda qarib, bemador bo'lma.*

*Aldanmagin bahorga, oqil yoshligim.  
Peshvoz chiqqan nahorga sen bardoshligim.  
Sabru matonatni ol, bo'lma serxayol,  
Mening oqsoch dunyomga chin qardoshligim!*

## ***SO'RAGANDIM***

*Men bahorni so'ragandim, keldi bahor.*

*Har yon gullar ochdi, quyosh nurin sochdi.*

*Toshib oqdi, jo'shib oqdi katta anhor,*

*Kulgim esa anhor bilan mendan qochdi.*

*Men bulbuldan so'ragandim, kuylab berdi,*

*Sho'x qo'shiqdan gul-lolalar ochdilar lab.*

*Kapalakka bu kuy quvonch va zavq berdi,*

*Bo'sa oldi guldan arilar bol talab.*

*Men yomg'irni so'ragandim, yog'di yomg'ir.*

*Derazamni chertib o'tdi tomchilari.*

*Men pinhona qalbga yiqqan g'amim oxir,*

*Ko'z yosh bo'lib yomg'ir kabi tomchiladi.*

*Biroq, biroq u tomchilar, ko'z yoshlarim,*

*Chertolmadi sening qalbing, yurak toring.*

*Neki so'rsam bari keldi, keldi lekin,*

*Kelmading sen, dil tilagi-mening yorim.*

*Sog'ingandim sarin ellar iforini,*

*Yuragimga taqib ishqining tumorini.*

*Ellar esdi yaqin qilib yirog'imni*

*Ammo xajring tog'dek uydi firog'imni...*



## G'URUR YO'L BERSA

O'smani qoshga qo'yib turgan chog'imda,  
Qasd qilganday to'satdan chiqib qolasan.  
Uyatdan qizargancha chopsam yuvGANI,  
Asta kulib, beparvo gapga solasan,  
O, mening quvnoq qo'shnim, barno bo'yligim,  
G'urur yo'l bersa senga sevgim so'ylagum!

Qizlar kulishar, qoshing bedapoya, deb,  
O'smani ham qo'yaman qilib qoshga mos.  
Goh oqib bejalgan dam qoshim o'sma-la,  
Chiqib qolasan zarur ishlilarga xos,  
O, mening quvnoq qo'shnim, barno bo'yligim,  
G'urur yo'l bersa senga sevgim so'ylagum!

Uzoqdan jim so'rashib qo'ysang, mayli-ya,  
Qo'lim siqib, ko'zimga sirli boqasan.  
Ishqingni so'zlab chaqnoq ko'zlarining yakkash,  
Meni sevishligidan ichadi qasam.  
O, mening quvnoq qo'shnim, barno bo'yligim,  
G'urur yo'l bersa senga sevgim so'ylagum!

Balki o'ylarsan buncha orolanar, deb,  
Yo'q-yo'q, senga kelmas bu xayoldan uchqun.  
Chunki ishonchim komil, sezgir, donoim,  
O'smani ham qo'yarman faqat sen uchun.  
O, mening quvnoq qo'shnim, barno bo'yligim,  
G'urur yo'l bersa senga sevgim so'ylagum!

## **SEVGAN EMISHSIZ**

*Meni sevgan emishsiz, g'oyibona rashk bilan.  
Quvonch bilan, ba'zida ko'zlardagi ashk bilan.  
Sevgingizda men pari-paykarga aylanibman,  
To'marisdek dovyurak sarkarga aylanibman.*

*Farhoddek tosh yo'nibsiz, Shirin bo'lib chorlabman.  
Baland tog'lar boshida kunday kulib porlabman.  
Muhabbatি bezavol oshiqqa aylanibsiz.  
Kishansiz telbanamo bir ishqqa boylanibsiz.*

*Sizga men ko'rinyami ol ro'molim silkitib,  
Ketmasmi ishq sozlagan torlaringiz silkinib?  
Layliga boqqan Qaysdek turarmisiz aso, deb,  
Sevgingiz sindirmasmi bir so'z yo bir tasodif?*

*Ana shundan qo'rqaman istihola, vaj bilan.  
Men o'shandan hurkaman, o'z-o'zimdan ranj bilan.  
Sizning shaffof hissingiz shaffofligicha qolsin.  
Sarob bo'lsa sezmayin, sarobligicha qolsin.*

*Chin yurakdan oshiqqan, saodatga erishgay.  
Bardosh tug'ini tikkan. sadoqatdan ko'rishgay.  
Yillar sinab bardoshim, orzular ba'rin tutdim.  
Topib do'stu darddoshim, demam lek barin tutdim...*



## ZUXRONING ILTIJOSI

*Boychechaklar kutgandek qaldiroqning sasini,  
Subhidam shudringlari titrab qaroqlarimda,  
Ming bitta kechaning ming ikkinchi qissasini  
Kutgan kabi kutgandim asrab ardoqlarimda.*

*Kelasan degan edim, yuragimni chok qilib,  
Intiq edim zaminday yomg'irni kutgan kabi.  
Seni juda pok bilib, o'zim kabi toq bilib,  
Qirg'oqdagi Zuxrodek, Tohirni kutgan kabi.*

*Sog'inib ham sig'inib kutayapman hamon, kel,  
Oydan, quyoshdan kechib o'tayapman omon, kel.  
Boshimdan tog' qulasin, Alloh bizni qo'llasin,  
Seni menga yo'llasin, bo'lsin xurram zamon, kel.*

*Men umidvor tug'ildim, to'ymayman bu dunyoga,  
Ketsa ketsin bor mulkim, kuymayman bu dunyoga.  
Mehringga to'ysam bo'ldi, kim aytar seni o'ldi,  
O'lsang o'larman, yolg'iz qo'ymasman u dunyoga.*

*Axir seni kutgandim, kutgan kabi ro'shnoni,  
Sensiz tashlab ketarman bu umidbaxsh dunyoni.  
Oydan, quyoshdan kechib, o'tayapman omon, kel.  
Sog'inib ham sig'inib kutayapman hamon, kel.*

*Mohimni kechiraman, ko'nglimdan o'chiraman,  
Kechikib kelsang-da kel, men seni kechiraman.  
Ming bitta kechaning ming ikkinchi qissasini  
Kutgancha, dil tutgancha, tun-kunni ko'chiraman...*

## AYTING - AYTING

*Meni sevib bo'lmashi, ayting, ayting,  
Jahonim hisdan mastmi, ayting, ayting?  
Sizga bir hamdam kerak, nega jimsiz,  
Yashang bo'shatib yurak, nega jimsiz?*

*Bu jilmiklar bag'rimni ezadi ko'p,  
Ba'zan dilu bag'rimni bezaydi xo'p.  
Bu "Bezak"lar umrimning dovi endi,  
Yurak siz-toshbag'irning ovi endi.*

*Menga juda ham og'ir, siz bilmaysiz,  
Jonu jahonim og'rir, his qilmaysiz.  
Sizniki bo'la olmay, devonaman,  
O'zimniki qilolmay, jim yonaman.*

*Sizni tanidim qachon, esimda yo'q,  
Sizga bog'langan jahon izmimda yo'q.  
Buncha yalintirasiz, dil cho'g'immisiz?  
Dilni nishonga olgan bor-yo'g'immisiz?*

*Seni nishonga olgan o'qingman, deng,  
Sen ishongan men boru yo'g'ingman, deng.  
Bahorlardan to'kilgan iforman, deng.  
Gullar qo'shib to'qilgan iqrorman, deng.*

*Men xitobman, ilohiy xitobman, deng,  
Sen hech o'qib tugatmas kitobman, deng.  
Yomg'irlar to'shin urgan maysangman, deng,  
Faqat senga ishongan naysonman, deng...*



## TILI BO'LSA

*Tili bo'lsa eshigim oldidagi o'rikning,  
Tili bo'lsa kichkina shu yog'och o'rindiqning,  
Seni qanday zoriqib kutganimni aytadi,  
Tong ottirib, toliqib kutganimni aytadi.*

*Osmondag'i yulduzlar oyga ilashib ketdi.  
Ko'ksimdag'i havasga hasad ulashib ketdi.  
Ufq qizardi, kecha botgan quyosh ko'rindi,  
Siniqqan yonog'imda qotgan ko'zyosh ko'rindi.*

*Ko'rindi shu qaro tun ertam emas, kechmishim,  
O'ttizda o'tinligim, na-da olt mish, yetmishim.  
Gur-gur yondim-u kulga aylanganim oqibat,  
Lolaqizg'aldoq - gulga aylanganim oqibat.*

*Gur-gur yondim, yonishim uch kunlik bo'lib chiqdi.  
Alvon yaproqlarimni shu kecha yulib chiqdi.  
Senga suyanganimni shu mushtoq tun tushundim.  
Senga kim ekanimni sen qandoq kun tushunding?*

*Uydilar qon yutsa, ko'chadagilar maymish.  
Dardimni oyu quyosh, yulduzlar Elga yoymish.  
Ammo tili yo'q o'rik, zabonsizdir o'rindiq.  
Oy, yulduzu quyoshga yetib bormas ho'rsiniq.*

*Tili bo'lsa eshigim oldidagi o'rikning,  
Tili bo'lsa kichkina shu yog'och o'rindiqning,  
Seni qanday zoriqib kutganimni aytadi.  
Tong ottirib, toliqib kutganimni aytadi...*

## **YANGI LIBOS**

*Ko'rib yangi libosimni, yarashibdi, dedilar,  
Aslida ochgan xusnim nedir, bilsa edilar,  
Derdilar, yor firoqi tugab vasli kelibdi,  
Qalbingning tilak, ohi, bahor fasli kelibdi.*

*Asli libosimni ham shu kun kiymoq bo'lgandim,  
Dildan tilab shu kunni qancha yondim, to'lg'ondim.  
Kunlab sanadim biroq, ko'ρ ko'rindi ko'zimga.,  
Oylab, xaftalab, ey-voh, dalda berdim o'zimga.*

*Yorsiz uyim xuvillab, xayollarim bo'lindi,  
Kunlar o'tdi imillab, ko'zlarim yo'lda tindi.  
Olishdim firoq bilan, nedir firoq, o'zim-la,  
Bedardkash tanho, ba'zan tuturiqsiz o'y, to'zim-la.*

*Qiyin bo'lar ekan bu, so'z bergandim, chidadim.  
Labimda xandon kulgu, qalbda dardim, chidadim.  
Chunki yaxshi bilardim, qachon dunyo kelsa tor,  
Ro'shnolikka eltuvchi sabr otliq tuynuk bor.*

*Ko'rib yangi libosimni, yarashibdi dedilar,  
Aslida ular mening g'amimdan shod edilar.  
Sabrimdan sariq oltin undirib erkalandim.  
Saralab kiyinib, dur, javohirga belandim.*



## MAKTUB

*Bahor maktub yo'llaydi:*

*SHaftolilar gullaydi,*

*Binafshalar lab ochar,*

*Muzlar erib, qish qochar,*

*Kutib olgil, qiz.*

*Bahor maktub yo'llaydi:*

*Qushlar sho'x-sho'x kuylaydi.*

*Anhorlarda toshar suv,*

*Har Erda yalla, kulgu,*

*Kutib olgin, qiz.*

*Bahor maktub yo'llaydi:*

*Ishq-vafodan so'ylaydi.*

*Chechaklarga ko'milib,*

*Yog'dularga cho'milib,*

*Kutib olgin, qiz.*

*Bahor maktub yo'llaydi:*

*Baxtingga baxt ulaydi,*

*Vafodoring boqib xush,*

*Baxting mangu, emas tush,*

*Kutib olgin, qiz.*

*Bahor xatin ko'piga,*

*Niyatlarin xo'piga,*

*Ishonaman, ammo do'l,*

*Chaqmog'ining dardi mo'l,*

*Chidaymiz-da endi biz!..*

## **UNUTIBMAN**

*Oqshom, qalb izhor etding,  
Ko‘zlarining misli chaqmoq.  
So‘ngra menga gul tutding,  
Biri qizil, biri oq.  
Kulgim keldi-yu, jiddiy  
Boqishlaring qo‘ymadi.  
Deyoldim, o‘yimda ham  
Yo‘qsan-ku, tinch qo‘y mani.  
Sen deding, ushbu gulim,  
Sevgim ramzi, buni bil.  
Gulga boqib loaqal  
O‘ylashga harakat qil.  
So‘ng ketding, men-chi qoldim,  
Qalbim to‘la qiziqish.  
Uzoq xayolga toldim,  
Boshga tushar dedim ishq.  
Degandim sen ketgan dam,  
Bedor o‘tsa kerak tun.  
Lekin seni o‘ylashdan,  
Uyqu kelibdi ustun.  
Kechir, seni sevishga,  
Joy yo‘q ekan dilimda.  
Sen bergan gulni hatto,  
Unutibman hovlimda.*



## SINAMOQ

*Sinamoqni istayman,  
Kolgil yaqinroq.  
Sevishimni istasang,  
Bo'l avval inoq.  
Yo'qotmagil qarshimda  
So'zlariningni sen.  
Agar sevsang, yashirma  
Ko'zlariningni sen.  
Ko'zlariningdan olayin  
Qalbingni tanib.  
Qalbimga ishq solayin,  
Yonib, o'rtanib.  
Men ham sevmoq istayman,  
Kolgil yaqinroq.  
Mayli, beg'am dilimni  
O'rtasin firoq.  
Mayli, ko'zim toldirsin  
Quyoshdek visol.  
Mayli, otash qalb bilan  
Nigohingni sol.  
Kungaboqar doimo  
Boqqanday kunga,  
Seni deb yakkash men ham  
Talpinay senga.*

## ***QO‘SHIQ***

*Bir kayfiyat kelmokda,  
ko‘tarinki, sho‘x.*

*Samimiyat kelmoqda  
davralarga cho‘g’.*

*Mehnat kishilarini  
yoqlab kelmoqda.*

*Yangi zafarlar sari  
chog’lab kelmoqda.*

*Bir kayfiyat kelmoqda,  
yoshlikdek jo‘sib.*

*Ezgu niyat kelmoqda,  
kelmoqda qo‘sinq.*

*Siz yurakdan qo‘sinqqa  
poyondoz to‘shang.*

*Aylanib chin oshiqqa,  
odamdek yashang.*

*Odamiylik kelmoqda,  
kelmoqda sevinch.*

*Siz yashashga oshiqing,  
bexavotir, tinch.*

*Buning uchun hammaga  
sog’lik tilaylik.*

*Hamma birov-birovga  
bog’lik, bilaylik!..*



## **SOG'INIB KETDIM**

*Ko'k tog'dagi tizilgan,  
 baland-pastdan cho'zilgan,  
 archalarga tikilib,  
 seni sog'inib ketdim.*  
*Ohulardek o'ynoqlab,  
 yoshlar yurar quvnoq qalb.*  
*Men ularga tik kelib,  
 seni sog'inib ketdim.*  
*Arg'imchog'ida uchib,  
 na hayiqmay, na cho'chib,  
 hadiklarga tek kelib,  
 seni sog'inib ketdim.*  
*Sevgingdan karaxt bo'lay,  
 gul bo'lay, daraxt bo'lay,  
 bo'stoningga ekilib,  
 seni sog'inib ketdim.*  
*Seni sog'inib netdim?*  
*Oldingga qaytib ketdim,  
 sog'inchim aytib ketdim,  
 sen meni sog'indingmu?*  
*Qushdek qo'lingga qo'nib,  
 har na istasang ko'nib,  
 yashay o'zimdan tinib,  
 sen meni sog'indingmu?*

## ***KECHIB KETDI***

*Kechib ketdi, kechib ketdi,  
guldan, giyohdan.*

*Garchand o‘zi mashaqqat-la  
o‘stirgay edi.*

*Qasos olmay qo‘ydi har bir  
alaf, qiyoqdan,*

*Holbuki, tez zulmatga  
ko‘chirgay edi.*

*Ko‘chib ketdi, ko‘chib ketdi  
taxti ravotdan.*

*Aslida har bitta g’ishtin  
o‘zi qo‘ygandi.*

*Balki ravot fayzlashib  
ketgandir rostdan?*

*Xayollanib halovatin  
buzib qo‘ygandi.*

*Kechib ketdi, kechib ketdi  
oson va xursand.*

*Axir, bag’ri sening bilan  
to‘ldi, topqiri.*

*Kechib ketdi, kechib ketdi  
hamma narsadan,*

*Faqat undan sen kechmasang  
bo‘ldi, topqiri!*

**BAHOR**

*Yashartirgan odamni,  
Yashil etgan olamni,  
Erning yelkasida yuk,  
Bahor!*

*To‘kildi tog’lar qori,  
So‘kildi ko‘kning bori,  
Elib kelar oshiqdek,  
Bahor!*

*Turnalarning tizimi  
Halol mehnat kezini  
Olib kelar qo‘sinqdek,  
Bahor!*

*Xavolarda entikkan,  
Havas ko‘zini tikkan,  
Oq bulutlar beshikdek,  
Bahor!*

*Jaranglaydi dutordek,  
Vasl kutgan diydordek,  
Ko‘klamoyga eshikdek,  
Bahor!*

*Umidaning so‘zida,  
Kulib turgan ko‘zida,  
Jaranglayapti ishqdek  
Bahor!*

## **SEZMADING**

*Lolalarni sevarding,  
Loladan libos kiydim,  
Sezmading.*

*Lolazorga boqishdan,  
Nigohlarimni tiydim,  
Sezmading.*

*Bolalarni sevarding,  
Bolalarga xos suydim,  
Sezmading.*

*Qarshingga quvnoq chiqdim,  
Qarshingda qovoq uydin,  
Sezmading.*

*Muhabbatim o't derding,  
Yana gurros o't qo'ydim,  
Sezmading.*

*Muhabbat edi darding,  
Men ham shu dardda kuydim,  
Sezmading.*

*Sen deb bag'rimni o'ydim,  
Jon-jahonimdan to'ydim,  
Sezmading.*

*Ne tong, men seni suydim,  
Ne tong, seni deb kuydim,  
Sezmading..*



## TO'KIBMAN

*Gul libosmas, rido to'qibman,  
Roz-havasdan judo to'qibman.  
Na-da rozu havas, imondan,  
Kechib o'zdan ado to'qibman.  
Uni kimga kiydiray endi,  
Kiyib kimni kuydiray endi?  
O'z jonimdan, jon-jahonimdan,  
Ayrilib jon to'ydiray endi.  
Buncha g'ofil bo'lmasam bunda,  
Makr mavjud dunyoi dunda.  
Zavqi, shavqi qadimiyligi, rangi,  
Ohanglari yangicha kunda.  
Nima ko'rdim, ridomdan bo'lak,  
Mashg'ullikkaga fidomdan bo'lak?  
Men ridoni sotishga chiqsam,  
Bozor tirband, to'la yo'l-yo'lak.  
Xaridordan sotuvchi bisyor,  
Rido to'shab yotuvchi bisyor.  
So'zni oshdek paqqos tushirib,  
So'zni so'zga otuvchi bisyor.  
Essiz, yolg'on yo'lga tushibman,  
Do'stim nodon, cho'lga tushibman.  
Yarmi o'tdi umrning endi,  
Yarim yo'lida qo'lga tushibman...*

## BILSAYDING

*Bilsayding, senga zinhor  
Ozor bermay deyishim.  
Sen qalbimda sof bahor,  
Faqat seni sevishim.*  
*Bilsayding, sen yo‘g‘ingda  
O‘rtanib bo‘zlashimni.  
Qalbim xumor tuyg‘uda  
Har tomon bo‘zlashimni.*  
*Lekin tushgach, ko‘z ko‘zga  
Bo‘lib qolgum toshbag‘ir.  
Bir og‘iz shirin so‘zga  
Seni etgum muntazir.*  
*Peshonangdagi qo‘ng‘ir  
Sochlaring o‘ynab asta  
Boqasan mo‘ltir-mo‘ltir  
O‘rtangan diling xasta.*  
*Mehrim tovlanib shu choq  
Sochlaring silay deyman.  
Gul tutib quchoq-quchoq,  
Gullarga belay deyman.*  
*Biroq yo‘l qo‘ymas bunga  
Qurg‘ur g‘ururim doim.  
Kechir, jonginam, senga  
Bo‘lib ketdi-da qiyin...*



## GULDASTA

*Meni yaxshi ko'rasanmi,  
Menga gullar terasanmi?  
Guldasta, guldasta,  
Gulga dil payvasta.  
Qatida xati bor,  
Xatida otim bor,  
Nozvana-nozvana,  
Uni yor yozgan-a!  
Meni hurmat qilasanmi,  
Sadoqatni bilasanmi?  
Saxovatni qo'sh unga,  
Saodatni qo'sh unga.  
Ishonch bo'lsin o'rtada,  
Ishonchsiz ishq mo'rtadi.  
Seni yaxshi ko'raman,  
Tushlarimda ko'raman.  
Sendan kutib guldasta  
Shirin xayol suraman,  
Guldasta, guldasta,  
Gulga dil payvasta.  
Qatida xati bor,  
Xatida otim bor,  
Nozvana-nozvana,  
Uni yor yozgan-a!*

## **GUL BO'LMOQ**

*Sariq atlas sep yoyib,  
Bog'imda quësh porlar.  
Gul shabnamga yuz chayib,  
Husnim ko'r,- deya chorlar.  
Bolari gulga qo'nib,  
Bol-asal yig'moq bo'lsa,  
Kapalak gir aylanib,  
So'rashin ko'rdim bo'sa.  
Qushlar ham tongdan bunda  
Taratar dilbar navo.  
O'ynagil,- deydi shunda,  
Gulni tebratib sabo.  
Gul ko'rki, chiroyiga,  
Olovday ishqim qalab,  
Egilib gul poyiga,  
Tekkizaman men ham lab.  
Va deyman, gul bo'lmoqlik  
Juda ham qiyin ishdir.  
Bahoru yoz o'tar, lek  
Kuz kelar, oldda qishdir.  
Qishdan omon chiqmoqlik,  
Bahorga intilmoxlik,  
Poyingga o'zin to'shab,  
Gul bo'lmoq baxt ne chog'liq!*

***SEVSANG MENI***

*Sevsang meni, yonib sev, erkam,  
 Otash bergil qo'shiq, kuyimga.  
 Sof sevgi-la ertamiz bekam,  
 Fayzu vafo kirsin uyimga.  
 Xayoling-la banddirman har tob,  
 Kel desang bas, yeldek yetaman.  
 Nurim to'shab misoli oftob,  
 Bo'stoningni obod etaman.  
 Dovdirasang daydi nigohdan,  
 Rashku ta'nam aro adosan.  
 Chiqa olmay hijronli chohdan,  
 Mangu motamsaro gadosan.  
 G'urbatimni alishmayman hech,  
 So'z mulkining savdogariga.  
 Taqdirga tan berib erta-kech,  
 Parvo qilmay o'tgum bariga.  
 Aldar bo'lsang o'zingga qiyin,  
 Bu dunyoni aylaysan bir kam.  
 Mening sendan ketmog'im tayin,  
 So'ng kimga yor bo'lasan, erkam?  
 Aldar bo'lsang o'zingga qiyin,  
 Tayin bo'lar firoq jafosi.  
 Bir kam bo'lar olaming, keyin,  
 Ketib qolar ishqim vafosi.*

## TASKIN

S. Mexmonovaga

*Mashmashali o'tdi kunlar,  
Tanni yutdi chang, tutunlar.  
Tani boshqa dard bilmaslar,  
Bormi mendek dili xunlar?  
Bormi biron bag'ri butun,  
Nasyasi yo'q, naqtı butun.  
Hamma so'ylar kuyganidan,  
Usti butun, ichi tutun.  
Kamish yig'lar nay bo'ldim,- deb,  
Uzum yig'lar may bo'ldim,- deb.  
Bu yolg'onchi dunyosidan,  
Rost dunyoga shay bo'ldim,- deb.  
Xaqiqatni ichgin, dilim,  
Yolg'onlardan kechgin, dilim.  
Rostguylikning osmonida,  
Xumo bo'lib uchgin, dilim.  
Quchog'ing och billur buloq,  
Gullagan bog', purviqor tog'.  
Oxularning shoxlariga  
Ilingen moh o'tarmi toq?..  
Barham bergin g'am-kulfatga.  
Bunda kutar yostiqdoshing.  
Sog'inchini o'rab baxtga,  
Chiqar sening baxt quyoshing.*



## TUG'ILGAN KUN

Daraxtlar nishonlar tug'ilgan kunin,  
Bashang kiyinishib erta bahorda.  
Hammaga ko'z-ko'zlab taqinchoq gulin,  
Dimog'i chog' bo'lar quvnab saharda.  
Kun va tun tenglashgan go'zal navro'zdan  
Go'yo yo'q o'zgacha bayram ularga.  
Qahraton qahridan arigan yuzda  
Hamisha bahona bordir kularga.  
Quyoshga talpingan boychechak yanglig',  
Cho'ponlar orziqib kutar ko'klamni.  
Tuyog'i ortar qo'y, echki, ulog'in,  
Ko'kalam ko'rsam der tezroq dalamni.  
Alvon lolalarin bahorga yoyib,  
Yastanib yotibdi homilador yer.  
Hademay bag'ridan shirin ta'm tuyib,  
Turfa xil ne'matlar meni oling,-der.  
Navro'z kunlarida yashnab ketgan bog'  
Rizqu-ro'z bayramin etar namoyon.  
Men qancha shodlansam, shuncha ko'ngli chog'  
Oq soch tog' zilolim eltay der, qayon.  
Ko'z tushgan joylarda gullar unsin,-der  
Bulbullar nag'masi dillarga malham.  
To'kilsa manglay ter, beiz qolmas yer,  
Halovatli elning har kuni bayram!

## OQQAN SUV

*Oqqan suv qadri yo‘q deyishar edi,  
Xo‘rlasang cho‘pni ham, tushar ko‘zingga.  
Men bahor faslida tug‘ilgan edim,  
Bahoroy edim, duch keldim kuzimga.  
Ikkimiz yurganda to‘lib ko‘chalar,  
Yaproqlar havasmand qarsak chalardi.  
Husnkor gullardan fusun kechalar,  
Biz yurgan yo‘llarga gilam solardi.  
Boring va iqboling kushandasimas,  
Farishta chehrangning bandi emasdim.  
Men sening beg‘ubor ko‘ngling bilan mast,  
Pokiza sevging-la shod edim asli.  
Shonu-shuhhratingga bermadim firib,  
Men mehr izladim sening dilingdan.  
Yurak - yarador qush, asta don terib,  
Emoqlik istadi sening qo‘lingdan.  
Oqqan suv qadri yo‘q deyishar edi,  
Ko‘zimga pardalar tortishdi mening.  
Yo‘limiz bir umr ayridir endi,  
Elkamga og‘ir yuk ortishdi mening.  
Xo‘rlangan cho‘p, tushib ko‘zimni ko‘r et,  
Labimga tekkanda singil, piyola.  
Sen esa jilmayib bir ko‘rinib ket,  
Yo sovuq nigoh-la, dilim siyohla!..*



## KUTGAYMAN

*Bu dunyoga kelib ketgan shoirlar,  
Favqulodda bilim, ongga doirlar,  
Shivirlaydi qulog'imga: "Shoshilma,  
Toqqa chiqqan insonlar ham toyurlar."  
"Amir Temur taxtin talov yemirdi,  
Cho'ng nomini g'iybat-balo kemirdi,  
Tushsa hamki oqibatda qozonga,  
Semizlikni qo'y ko'tardi, semirdi.  
O'lim o'zi bitta g'am-ku, kamingni  
Ming qilib ko'z yoshga ko'mding damingni.  
Sen yo'qotgan azizlaring yo'q endi,  
To'ldirmoq-chun tirikdan top kamingni.  
Dunyoda sen bilmading ne istading,  
Istagingdan sira ortiq bo'ljadi.  
Chin yurakdan nimaniki izladning,  
Osonlikcha aslo tortiq bo'ljadi..."  
Bir ayolman gulga intiq, nurga zor,  
Vujudimda ba'zan shaytoniylik bor.  
Vasvasali xayolimga hamisha  
Sabr otli bir dugonam madadkor.  
Men sabrning etagidan tutgayman,  
Cho'l, ko'llardan, o'rmonlardan o'tgayman.  
Bir tola soch, taroq yo oyna solib,  
Sabru bardosh bilan baxtim kutgayman.*

## BIR GULNI SUYDIM

Zavqqa to'lib, kulib yurgan chog'imda,  
Yulduzlar-la suhbat qurgan bog'imda,  
Atirguldek ajib bir bo'y taratib,  
Sevgi kurtak yozdi quvonch, ohimda.  
Men bu boqqa yo'latmovdim hech kimni,  
Sevgi gullar yozdi olib tinchimni.  
O'zimniki dedim baxtli chog'larim,  
Bo'lishmadim hech kim-la sevinchimni.  
Yuragimga shodlik keltirgan malak,  
Shu'lalardan ko'ylak kiygan kapalak,  
Tutib bo'lmas nafis gulga aylanib,  
Xayolimni kundan-kun etdi halak.  
Go'zal bog'im kulgularga to'lmasmi,  
Kapalakni bir bor tutib bo'lmasmi?  
Parvo qilmay yoshimga, bardoshimga,  
Kurtak yozgan muhabbatim so'lmasmi?  
Zavqqa to'lib, kulib yurgan chog'larim,  
Yulduzlar-la suhbat qurgan bog'larim,  
O'zimniki bo'lsin ishqli umrimda,  
O'zimniki bo'lsin qayg'u-ohlarim!  
Men yashashning ma'nosin ishqdan tuydim,  
Saratonni sog'indim, qishdan tuydim.  
Shu'lalardan ko'ylak kiygan kapalak  
Tutib bo'lmas bir nafis gulni suydim.

## **YANGI BAHORLAR**

*Qish chekindi, yangi bahorlar,  
Eshigim qoqdilar, boqmadim.  
Ayqirib oqdilar anhorlar,  
Men esa avjlanib oqmadim.  
Yoqmadim umrimning shamini,  
Ilk sevgim o'chirib ketgandi.  
Bahorlar to'ldirmas kamimni,  
Bag'rimni ko'chirib ketgandi.  
Bahorlar rostlanar bo'yimdek,  
Men uni qarshilay qandayin?  
Armonli, alamli o'yimdek,  
Olingan umrimning qantdayi.  
Men qachon quyoshga chiqaman,  
Bahorimni qaytaring, yellar!  
Oqib ketgan kuyni yig'aman,  
Anhorimni qaytaring, yillar!  
Eyvoh, bahor bitta bo'larkan,  
Yilning to'lin fasllarida.  
Ushalmagan orzu o'larkan,  
Har faslning vasllarida...  
Ko'ringan har jonga aytmoqqa.  
Etar-ku beadoq hasratim.  
Men qachon bahorga qaytmoqqa  
Bir jur'at toparman, hazratim?*

*Ko‘z yoshni ichirgan hazratim  
Qarang, bir xuzurbahsh yel turdi.  
Quyoshni kechiring, hazratim  
Olamga gul, bahor keltirdi...*

## ***CHO‘CHIB QARAYMAN***

*Cho‘chib qarayman, cho‘chiganim  
Bahor qarib qolgani bog‘da.  
Tuproqning bevaqt ko‘pchigani,  
So‘lim yozni qoldirib dog‘da.  
Cho‘chib qarayman, cho‘chiganim,  
Gala-gala qushlar qaytmasmish.  
To‘qay yo botqoqda urchigani  
Vaqt o‘tganmish, endi paytmasmish.  
Cho‘chib qarayman, cho‘chiganim,  
Gulbahorning fayzi yo‘qligi.  
Yozilmaydi yozim chigili,  
Noz-ne’matli kuzim yo‘qligi.  
Cho‘chib qarayman, cho‘chiganim  
Chetdan hechkim bostirib kelmas.  
Dushman endi yon-verimizda,  
Lekin hechkim cho‘chishim bilmas.*

*1980.*



## **BAHORNI KUTDING**

*Sen bahorni orziqib kutding,  
Sumalakning ta'm-totlarida.  
Yangi-yangi ertaklar tutding,  
Qaldirg'ochning qanotlarida.*

*Ayvoningni qumri yurt bildi,  
Xas-xashakdan oshiyon qurib.  
Polaponin uchirma qildi,  
Atrofingda ku-kulab yurib.*

*"Qur-qure" si bilan quchishib,  
Olamingga turnalar qaytdi.  
Bu yil juda pastlab uchishib,  
To'kinchilik yildan bayt aytdi.*

*Qaldirg'ochlar qaytdi vijirlab  
Oftobro'ya ayvonlaringga.  
Shukr, deya boqding pichirlab,  
Gul yog'ilgan sayxonlaringga.*

*Quyosh belanchagin tebratib,  
Navro'z bobo jilmayib boqdi.  
Buncha go'zal, bunchalar latif  
Iliqlik bu, hammaga yoqdi!*

*Sumalakdan tosh topgan bola  
Quvonchlari olamni quchar.  
Varrak bo'lib tinch osmon to'la  
Havolangan orzular uchar.*

*Gilos rangga ranglar qo'shsalar,  
Taqib olding quloqlaringga.  
Qoshingdagi qaysar o'smalar  
Oqib tushdi yonoqlaringga.*

*Dimog'ingda qulupnay isi,  
Erta pishar o'riklar ta'mi.  
Ufurmoqda yozning nafasi,  
To'ldiray deb bor bo'lsa kami.*

*Bahor shamolida bearmon  
Uchib-qo'nib qushlar to'y berar.  
Kim tut ebdi, topibdi darmon,  
Tut hammani birdek to'ydirar.*

*Pishib, bitta-bittalab tushar  
Shaftolining mevalari bol.  
Vujudingga kuch-quvvat qo'shar  
Shu vatanda mangu yashab qol.*



## **BAHOR BOSHLANDI**

*Bizda bahor boshlandi,  
Qishki ust-bosh tashlandi.  
Qalin loshimni endi,  
Echib ketolmayapman.*

*Ko‘zim yumsam ko‘rgayman,  
Qorli yo‘lda yurgayman,  
Hayron qarab turgayman,  
Kechib ketolmayapman.*

*Gul-gul yonib yursam ham,  
O‘zdan tonib tursam ham,  
Quvonchimga, g’amimga  
Hamdam qilolmayapman.*

*Fasllarda ishim yo‘q,  
Saratonim, qishim yo‘q.  
Seni o‘xshataj kimga,  
Hardam bilolmayapman.*

*Ming nozlanib turlandim,  
Mexringdan g’ururlandim.  
Maqtandim, kibrlandim,  
Kechira olmayapman.*

*Mushtariy yulduz edim,  
Nurafshon kunduz edim,  
Ishq to‘la dengiz edim,  
Ichira olmayapman.*

*Yuvmoq uchun sho‘rimni,  
Tiklashga obro‘yimni,  
Jamlab xayol, o‘yimni,  
Senga etolmayapman.*

*Ajratishga tush-o‘ngim,  
YILLAR kerak yangidan,  
Oz muddatda gangigan,  
Kundan ketolmayapman...*

*Na-da sovuqqa ko‘ndim,  
Na-da issiqqa do‘ndim.  
Toqqami, boqqa qo‘ndim,  
Senga qarolmayapman.*

*Chorlar jarangdor sasing,  
Tuyib issiq nafasing,  
Yoningdaman, yoningga  
Nechun borolmayapman?..*

**SUVDA**

*Suvda oqib ketayapman men,  
Uzilgan bir atirgul bo'lib.  
Yaproq'imda marvarid tomchi,  
Hali-beri qolmayman so'lib.*

*Suvga o'zing tashla-yu tezroq,  
Suzib chiqqin yonimdan mening.  
Javlon ursak, ikkov otib shox,  
Baxt aylansin jonimdan mening.*

*Oqib ketsak sarsari, daydi,  
Muhabbatning ummonlariga.  
Seni tashlab ketgim kelmaydi,  
Mensizlikning gumonlariga.*

*Bergim kelmas seni hechkimga,  
Sen meniki, o'zimnikisan.  
Sen mazmunsan erta-kechimga,  
Chorlab turgan ko'zimnikisan.*

*Ikki marta o'lmaydi inson,  
Tug'ililar lek kunda ming bora.  
O'n sakkiz yosh bo'lib tug'ilsam,  
Sen poklanib borsang tobora.*

*Ishonmayman axir o'zingga,  
Qarab turib aldar ko'zingga.  
Ishonmayman yonimdaliging,  
Xatto dildan aytar so'zingga.*

*Suvda oqib ketayapman men,  
Uzilgan bir atirgul bo'lib.  
Shu suvlarda yashaylik deyman,  
Ishq atalmish safoga to'lib.*

*Chunki seni atrof muhitga,  
Er-osmonga topshirib bo'lmas.  
No'g'aygami, o'ris, juhudga,  
O'ziga bek o'zbekka ham, bas!*

*Bas, birovga ishonmoqlik bas,  
O'zgalar-la ko'rmoqlik ham yo'q.  
Uzilgan men - atirgulman, xas,  
Hazonlarga aylansam dil to'q.*

*Chunki birga oqib ketyapmiz,  
Gapirmaydi baliqlar axir.  
Armon tumor taqib ketyapmiz,  
Axir bizning shirin ishq taxir...*

***UZOQ YASHAYMAN***

*Men uzoq yashajakman,  
Ulkan chinor misoli.  
Yaproqlar tashlajakman,  
Kuz kelgani timsoli.*

*Yana bahor, chug'urchuq,  
Jujuqlarga makonman.  
Yashajakman ko'nglim to'q,  
Hayotimga imkon - man.*

*Ildizim shoxlarimdan  
Uzun otar tuproqqa.  
Ilinjim, ohlarimda  
Mangulik shu turmoqqa.*

*Qayting polaponlarim,  
Temirqanotlarim hey.  
Xayrlashuv onlarim,  
Uvishadi bag'rim-ey.*

*Hech qayoqqa ketmayman,  
Ketganlarni kutaman.  
Poyonimga etmayman,  
Etganlarim tutaman.*

*Shivirlab turaver gum,  
Shovullab turaver gum.  
E'tiqodimda sobit,  
Lovullab turaver gum.*

*Osmon uzoq, er qattiq,  
Sotilmaydi sog'lik, dard.  
Nimaga bo'lmay intiq,  
Natijada yuqdi gard.*

*Kunning qadri - mehrdir,  
Totuvlikdir, bandlikdir.  
Yashamoqni faxr deb,  
Ulg'aymoq - balandlikdir.*

*Mushkulotim echil, - deb,  
Nola qilmoqqa tushdim.  
Gunohimni kechir,- deb.  
Qodir ilohda hushim.*

*Demak men yashajakman,  
Minib sabr otini.  
Tanib tanida darmon,  
Dardmand inson zotini.*



## **ISTAK TOG'I**

*O'tib ketsak bizdan keyin ham  
Quyosh ming bor o'lib, tirilar.  
Yana qancha inson tug'ilib,  
Yana qancha inson qirilar.*

*O'tib ketsak, bugungi yonib  
Lovullashlar kulga aylanar.  
Orzulardan ketarmiz tonib,  
Mag'rur yurak qulga aylanar.*

*Kecha kulgan lolaqizg'aldoq  
Yaproqlari to'zib ketadi.  
Erinib ko'z ochgan gullar oq,  
Hammasidan o'zib ketadi.*

*Balki u kun osmondan faqat  
Yomg'ir, qormas, do'llar yog'adi.  
Balki kimga qo'rs dil, beshafqat  
Kimga qattiq qo'llar yoqadi.*

*Bizni nima kutar ertaga,  
Men ertamdan ocholmasman rom.  
Biz bugunning g'amin tortaylik,  
Biz bugundan topaylik orom.*

*Derlar, hamma yashar teng bilan,  
Savlatlidir yoqa eng bilan.  
Bugungi kun g'amin emaslar,  
O'ladilar armon, mung bilan.*

*O'tib ketsak bizdan keyin ham  
Gullar yashar kulib ham so'lib.  
Shuning uchun yashaylik biz ham  
Tiriklikdan shodumon bo'lib.*

*Taqdir Alloh, tadbir odamdan,  
Nima qilsang qaytar o'zingga.  
Ogoh bo'l har omonat damdan,  
Javobin top aytar so'zingga.*

*Har bir so'zing bilsang aslida,  
Yasholmagan daqiqang bo'lar.  
Bu xotirjam umr faslida,  
Sezdirmasdan paymonang to'lar.*

*Niyating pok bo'lsa har qachon,  
Tilagingga tashlanmas kamand.  
Yurak chopsa g'animat har on,  
Istak tog'in zabit etgin baland!*

**INSON INSONMI?**

*Quyosh tog'lar ortiga  
Dumalab ketganida,  
Namozshomgul lab ochib,  
Ishqiy bayt bitganida,*

*Oppoq shu'lalar sochib,  
Oy qanot qoqqanida.  
Ko'kdan qulochin ochib,  
Maftunkor boqqanida.*

*Ko'rshapalak uyg'onib,  
Tun bag'riga botganda.  
Kaltakesak to/lg'onib,  
Tunni avrayotganda.*

*Marjonday oy bo'ynida  
Yulduzlar porlaganda.  
Cho'mib oqshom qo'yniga  
Ko'chalar chorlaganda,*

*Dilga yaqin ko'chada  
Xayolan kezar edim.  
Sir, sehrli kechada,  
Surating chizar edim.*

*Sening aziz xonangning  
Chirog'in yoniq ko'rdir.  
Chiroqqa parvonangning  
Qalbi to'la ishq ko'rdir.*

*Xonangga boqsam qiyo,  
Ilohiy malak siymo,  
O'ltirarding o'y surib  
Suratimga mahliyo!*

*Hayajondan, quvonchdan  
Yurakkinam chiqquday.  
Shu dilorom kechada  
Dilga olam siqquday!*

*Quyosh guvoh, oy guvoh,  
Dilbar, seni sevaman.  
Seningsiz shu ko'cha, shu  
Kechada ayt, nimaman?*

*Ayt, seningsiz nimaman,  
Ilohiy ishq, tuyg'usiz.  
Inson insonmi ishqning  
Hijron g'ami, qayg'usiz?..*



## **LOLA SAYLIGA**

*Bolalikdan yaxshi ko'rardim,  
Bolalikdan do'st edim senga.  
Bolalikdan sezib yurardim,  
Bir kun qo'ling tutishing menga.*

*Lekin meni xushlamay picha,  
O'zgalar-la o'ynab yurarding.  
"Hammomkish" u koptok, ayiqcha...  
O'zga bilan "baham" ko'rarding.*

*O'zgalarga qo'shilmay xasta,  
Men mung'ayib chetda turardim.  
Yoningdagi qizga hasadda  
Tikilardim, xayol surardim.*

*Yillar o'tdi, maktabda ham sen  
Ketganing yo'q xayolginamdan.  
Qancha yonib, kuyib-pishmay men,  
Behabarding ahvolginamdan.*

*Sizni mos deb maqtab yurishgan  
Odamlardan bezib yurardim.  
Sizni birga-birga ko'rishgan,  
Bog'lar aro kezib yurardim.*

*Sen qolmasding, yoshlikda o‘zing  
Inoq bo‘lgan qizning ortidan.  
Maktabni ham tugatdik, u qiz  
Qo‘lin tutdi o‘zganing birdan.*

*Sen shu qadar yonib, kuydingki,  
Bevafo deb, aziz do‘siginam.  
Men g’oyatda xursandman, chunki  
Yupatoldim seni o‘zginam!*

*Bolalikning nigohlari g’o‘r,  
Yolg’oni yo‘q, hayrati ma’sum.  
Orzusi cho‘ng, niyatlari zo‘r,  
Qaytarilmas beg’ubor mavsum.*

*Bolalikdan yaxshi ko‘rardim,  
Bolalikdan do‘sit edim senga.  
Bolalikdan sezib yurardim  
Bir kun qo‘ling tutishing menga.*

*Bugun menga boqa olmay tik,  
Taklif etding lola sayliga.  
Borsammikan, o‘n sakkiz yillik  
Sevgim xaqqi, borgum mayliga!*



## **LOLALAR EKAMAN**

*Nega siqilasan besamar, yurak,  
Vasvasa xayollar qulisan, quli?  
Men endi yashashim, yashnashim kerak,  
Ochilsa ochilsin o'zganing guli.*

*Senga nima bo'ldi eru samovot,  
Yiqilsam qo'limga tosh tutding ot, deb.  
Kimlar huzurimda aytib salovot,  
Ortimdan kuldilar bizga u yot, deb.*

*Sen nega ezginsan darbadar xayol,  
Chiziqlar tushirding oq manglayimga.  
Ko'zlarim, kimgadir suzgunsan xiyol,  
Kimgadir tizginsan yurmay rayimga.*

*Nega quvonchlarim qarimsik buncha ,  
Nimaga g'amclarim yosharib borar:  
"Extimol men sizga kerak buguncha  
Ertaga g'arib dil yig'lab yolborar".*

*Men yirtib tashlasam yuzim pardasin,  
Bunchalik qarib ham qolmasdim balki?  
Parvoga olmasam yotlar zardasin,  
Bunchalik g'arib ham qolmasdim balki?*

*So‘zimdan nolalar jo‘saveradi,  
Dunyoga kelishim - ketishdan darak.  
Ko‘zimga qoralar tushaveradi,  
Mening uzlatimdan xabardor yurak.*

*Men o‘zi izlayman xayotdan neni,  
Xurram kunlarimda xomushdir yurak.  
Ezgin xayollarim ezg‘ilab meni,  
Sovuq mozorgacha kuzatsa kerak...*

*Dunyo keng deb ko‘zni tikaman sekin,  
Bo‘g‘zimdan oladi xavasdagi erk.  
Ko‘nglimga lolalar ekaman, lekin  
Siqilib ketaman qafasdagidek.*

*Men qaytmoq istayman quvnoqligimga,  
Biroz o‘yinqaroq, quvroqligimga.  
Xayratim, g‘ayratim ketdi qayoqqa,  
O‘zim sababchiman gumrohligimga.*

*Bu siniq ko‘nglimga tushsa-da chega,  
Ko‘ksimda mavjlansin shukrning naqshi.  
Men nega sustlashdim, tundlashdim nega?  
Hayot abadiydir, yashamoq yaxshi!*



## AJRINI

*Juda ko'ρ damlar o'tdi,  
qo'ng'iroq qilmadingiz.  
Ko'ngil, kayfiyatimni  
bir so'roq qilmadingiz.*

*Ko'rmadingiz xolimini,  
ko'zim yoshga to'lganin.  
Oydayin jamolimni  
parokanda bo'lganin.*

*Sog'inch og'ir oh bo'lsa,  
Sevmoqlik gunoh bo'lsa,  
kuydirgi yorning nahot,  
doim vaqtি chog' bo'lsa?*

*Dilda nish urgan bu g'am  
Allox bergan ne'matdir.  
Sevgim o'chmaydigan sham,  
bardoshim beminnatdir.*

*Arazu g'arazlarni  
ko'mdim damlar qatiga.  
Gunohim - suyganimdir,  
aybim ham shu atigi...*

*Xayolimda tong otar,  
qay qiz sizga gul otar?  
Rashk, hijron azobida  
ruhim aro kun botar.*

*Boshimni g'am qildi xam,  
g'aramlangan jabrlar.  
Men qanday topay bu dam  
buncha bardosh, sabrlar?*

*Sajda qilib Musoga,  
Isoga ibodatlar.  
Xayoliy xiyonatlar  
hayotim qiyomatlar.*

*Ortingizdan ergashdim,  
men erda, siz osmonda  
Qaynar buloqdek toshdim,  
bu aytmoqqa oson-da.*

*Gunohim suyganimmi,  
tuyganimmi xajrini?  
Sizni deb kuyganimning  
Alloh bersin ajrini!*

**SEVGILIM SEVADI**

*Rohilaga*

*Sevinchim sig'maydi ichimga,  
Sevgilim sevadi, sevadi!  
Og'ishmay, alishmay hech kimga,  
Sevadi, sevadi, sevadi!*

*Eh, buncha baxtiyor bo'lmasam,  
Hayotni shunchalar suyaman!  
Eh, buncha faxri yor bo'lmasam,  
Muhabbat hissini tuyaman.*

*Katta tog' rostlanar qoshimda,  
Sevgilim sumbati rostlanar.  
Kattakon xayollar loshida  
O'tkinchi o'tinchlar ozlanar.*

*Baxtiyor bo'lmasam buncha ham,  
Sevgilim sevadi, sevadi!  
Faxri yor bo'lmasam buncha ham,  
Sevgilim sevadi, sevadi!*

*Bu hayot qadrli, qahraton,  
Saraton nimadir bilmasman.  
Sevgilim sevadi, qatag'on  
Qilingan taomlar qilmasman.*

*Ilmasman ko‘zimga qayg’uni,  
Tashvishlar nimadir emirgum.  
Tong otgan, men totgan tuyg’uni  
Men qayta, ming qayta simirgum.*

*Sevgilim sevadi, sevadi,  
Meningdek sevadi sevgilim.  
Sevgisiz sargardon tevada  
Yurganlar bevadir, sevgilim.*

*Hech narsa kerakmas, sevgilim  
Sevadi, shu o‘zi bas menga!  
Sevgilim sevadi, sev dilim,  
Aks holda xazonlar xas menga.*

*Oltinrang hislardan shodlanib,  
Otlansam boshlamang so‘rovni.  
Sochdagи oq tolam ham tonib,  
Dil o‘ti kuydirdi qirovni.*

*Ishq aro ozodman, men uchib,  
Men yonib boryapman ushbu dam.  
Hijronli kunlardan chin kechib,  
Shom aro oqarar subhidam...*

*Bu hayot qadrli qanchalar,  
Shunchalar yashamoq havasdir.  
Sevgilim sevadi shunchalar,  
Sevadi, sevadi shu basdir!..*



## SIZNI DEB

*Masturaga*

*Betashvish bolaligim,  
Qizg'aldoq lolaligim,  
O'yinqaroq sho'xligim,  
Qo'g'irchog'im - ko'hligim,  
Barini tashlab keldim,  
Faqat sizni deb, jonim!*

*Uyim qoldi uzoqda,  
To'yim qoldi uzoqda,  
Qancha pand, o'git qoldi,  
Bir saxiy yigit qoldi,  
Ko'zini yoshlab keldim,  
Faqat sizni deb, jonim!*

*Onam ham qoldi nolib,  
Otam qovog'in solib,  
Yo'qol, - dedi oxiri,  
Yomon otaning qahri,  
Dilimni g'ashlab keldim,  
Faqat sizni deb, jonim!*

*Balki sizning hovlingiz,  
Mahalla, ovulingiz,  
Menga torlik qiladi,*

*O‘ziga yot biladi,  
Tilimni tishlab keldim,  
Faqat sizni deb, jonim!*

*Va‘damni ushlab keldim,  
Ko‘ksimni mushtlab keldim,  
Yal-yal yashnab loladay,  
Harir ipak toladay  
Nolamni tashlab keldim,  
Faqat sizni deb, jonim!*

*Uchibman nimangizga,  
Tushibman kemangizga,  
O‘rnashay deyman men ham  
Shuuru ongingizga.  
Xayolim xushlab keldim,  
Faqat sizni deb, jonim!..*

*Siz shu qadar zo‘rmisiz,  
Ko‘z qamashgan nurmisiz,  
Ko‘ngil bir bahr bo‘lsa  
Siz undagi durmisiz?  
Hayotim tushlab keldim,  
Faqat sizni deb, jonim!*



## ***GO'ZAL QO'SHIQ***

*Sochlaramni o'rib qirq kokil,  
qoshlaramga qo'ygancha o'sma,  
Yorim tomon bezouta ko'ngil  
bilan shoshsam, yo'limni to'sma.*

*Agar hayot bir kitob bo'lsa,  
sevgi bobin o'qimoq sharaf,  
Dil sevgidan sehrga to'lsa,  
qo'llamoqdan o'zga yo'q taraf.*

*Qulqlar kar, ko'zlar ko'rlikda  
tuyganmisan hech ishq ta'mini?  
Muhabbat yo'q xo'rlik, zo'rlikda,  
sen o'ylama ko'ngil g'amini.*

*Ko'ngil quvonch-tashvishi aslo  
xohishingga bog'liqmas, bilsang,  
Mening ko'nglim muhabbat fasli  
bejiz behad chog'likmas, bilsang.*

*Yuragimga o't ketgan hozir,  
tilagimda visol ilinji.  
G'iybatlarning bozori qizir,  
buzilgandir g'animlar tinchi.*

*O't ketganda yonar ho'l-quruq,  
ishqimni bir yoqlovchi bormi?  
So'zlarim ham eh, uzuq-yuluq,  
ko'zlarimda otash bisyormi?*

*O't-olovni o'chirmoq uchun  
chog'lanmaydi aql-hushlilar.  
Sevgi ta'min totib, ishq kuchin  
tuyib yurgan humo qushlilar.*

*Balki bunday yurakni maqtab,  
topinmoqqa oshiqadilar.  
Tog'dan tushgan sharshara to'xtab  
qolmaganday toshiqadilar.*

*Bu toshqinlik oshiqlarga xos,  
odam bo'lib yashaydi ular.  
Saxiy dilda e'zoz, ehtiros,  
hotam bo'lib yashaydi ular.*

*Bir-birovni qo'msar yuraklar  
o'z-o'zidan o'chib qolmasin.  
Ertasidan ezgu daraklar,  
tuyg'usidan cho'chib qolmasin!*

*Bu tuyg'uni alqab yashaylik,  
kelajakka chorlovchi ishq u.  
Eng odamiy hayotga shaylik,  
hech eskirmas go'zal qo'shiq u!*

**YULDUZ BO'LIB...**

Saodatga

*Mendan nari yurding kichik deb,  
Keyin esa kelding kechikib....  
Sog'inganing aytding ichikib,  
Sevgingni shu chog'ingda tuydim,  
Ko'zlarining cho'g'ida kuydim.*

*Sovchi yubor deymi uyimga?  
O'g'lim etdi axir bo'yimga.  
Dushman tushsin mening kuyimga,  
Erkalaymi yorim deb seni?..  
Eh, uzilsin torim, deb seni*

*Ikki dunyo ko'zimga tordir,  
Ishqqa teng dard so'zimda bordir,  
Nima topsam o'zimga dordir,  
Bugunimdan ayrilay deyman,  
Yo'q dunyoga qayrilay deyman.*

*Goh ettinchi osmondaman men,  
Ilk sevgimga posbondaman men,  
"Tohir-Zuxro" - dostondaman men,  
Qorabotir bo'ldimi yorim,  
Uzilsin tor, to'kilsin orim.  
Sen ko'rinsang ko'zimga lekin,*

*Qad salomga egilar sekin,  
Boshlanadi tomosha tekin,  
Chalishadi oyoq, rang o'chib,  
Yana ko'kka ketarmiz uchib...*

*Yashar bo'ldim bir seni o'ylab,  
Etuk yoshda boladay so'ylab,  
Etmish ikki tomirim bo'ylab,  
Chopgan shayton la'natimdadir,  
Ilk muhabbat nafratimdadir.*

*Bag'rin ochgan tabiat behol,  
So'qmoqlarda gul-maysa uvol,  
Olib qochsa shaytoniy xayol,  
So'nggi nafas aytajak so'zim,  
Oqib tushsin ikkala ko'zim.*

*Sening bilan qovushgan chog'im,  
Oy berkinib xo'mraysin bog'im,  
Qulab tushsin tiklagan tog'im,  
Esga solib vafodorimni,  
O'tgan yo'lim, yo'g'im- borimni.*

*Yulduz bo'lib baland ko'kda yur,  
Qunduz bo'lib suvda javlon ur,  
Tushlarimda mayli, suhbat qur,  
Xuzurimga qadringni to'kib,  
Qaytib kelma qaddingni bukib!*



## **SEN ENDI KIMSAN O'ZI?**

*To'rt tomoning chor devor,  
Chiqa olmay qiyndalding.  
Keyin ko'chkilari qor...  
Yiqa olmay qiyndalding.*

*Sovuq o'tdi bag'ringdan,  
Yupun edi kiyiming.  
Asosiysi, baridan-  
Cho'ntakda yo'q tiyining.*

*Hamishalik hamdaming  
Bo'lmoq uchun otlandim.  
To'lib borsa kam-kaming,  
O'zimda yo'q shodlandim.*

*Meni eslab yurding sen,  
Menga shu kerak edi.  
Meni izlab yurding sen,  
Nigohing tirkak edi...*

*Endi juda xushvaqtsan,  
Hushsuratsan, xushbaxtsan.  
Lekin meni eslashga  
Topolmaysan bo'sh vaqt san!*

*Atrofingda do'stlar ko'ρ,  
Cho'g'li, cho'g'siz ko'zlar ko'ρ.  
Oyog'ing erdan uzib  
Ko'kka o'rlar so'zlar ko'ρ.*

*Yolg'izlikka yovlanib  
Hamrohlar izlamaysan.  
Ko'zlarining olovlanib  
Meni ham eslamaysan.*

*Qorlaring erib ketgan,  
Devorlar nurab ketgan.  
Hayrat emas, taningni  
Xalovat o'rab ketgan...*

*Gul-ra'no topganing rost,  
Gulshaningni yo'qotib.  
Ko'ngildan emas e'zoz,  
Ko'zingdan yog'du otib.*

*Sen endi menga kimsan,  
Javob topmay garangman.  
Seni ko'rsam men chindan  
Asablari tarangman...*

*Seni ko'rgim kelmaydi,  
Ko'rsam dildan so'zlashgim.  
Bilmadim endi daydi  
Dil-la kim-la do'stlashgum?!*



## ***TOJMAHAL***

*Gul bargi xazon bo'ldi,  
Ishq narxi arzon bo'ldi,  
Sevgi qasri - Tojmahal  
Sevgimga mozor bo'ldi.*

*Zorlandim unga bordim.  
Xorlandim - unga bordim,  
Momojon - Mumtozmahal,  
Dardimni senga yordim.*

*"Jamna", to'lg'anib oldi,  
Dardga cho'lg'anib oldi.  
Ishqqa qo'yilgan haykal  
Tojmahal quwib soldi.*

*Dedi, cho'ksang suyanchman,  
Qadding buksang - tayansman.  
Ammo hadeb zor qaqshab  
Nolalansang - ayanchman.*

*Kul bosgan quvonchingni,  
Yor - halovat, tinchingni.  
Qaytarib beray qanday,  
Olmoq bo'lib o'chingni?*

*Jiloving berib ishqqa,  
G'am chiqmasin to'piqqa.  
Yurak tafting so'nmasin,  
Urilib o'tga, cho'qqa.*

*Davonlardan o'tilar,  
Odimlaring kut bo'lar,  
Sen qayoqqa shoshasan,  
Shoshsha shoshsin bedillar.*

*Sening ko'ngling qo'rlansin,  
Qora ko'zing nurlansin.  
Sabr - sariq oltin deb,  
Men kabi g'ururlansin.*

*Armon tog'lari qular,  
Sevishgan dillar kular.  
Gullardan kashta tikib,  
Gulbahor tabrik yo'llar...*

*Sevgi qasri Tojmahal,  
Ishqqa qo'yilgan haykal.  
Dilga kuch, madad bo'lib  
Mangu tovlanar xal-xal.*



## KELSANG, KEL

*Kelsang, kel,yuragimga qo'r solib,  
Ko'zlarimga nur solib,ola ketsang kel!  
Yoshimga yosh qo'shgani,  
Boshimga bosh qo'shgani,  
Oldingga meni gap-so'zsiz,  
Sola ketsang, kel!  
Shunday kelki, yurgin deb,  
Sen menga bo'lib mayoq.  
Ketaveray yugurib,  
yalang bosh, yalang oyoq.  
Tuyg'ularim ko'ρ daydi...  
Bo'lgin tuyg'umning saydi.  
Cho'g'lantirib ko'zingni,  
Menga qarat yuzingni.  
Tikanning ham tirnog'i,  
Yalpizning ham yaprog'i,  
Yuragingga yozilsin,  
Ham his, hamda is olsin.  
Shunday kelki, kechirib,  
Azoblarim o'chirib.  
Meni kechirdi-ku,- deb,  
Armonlarim ko'chirib.  
Kuning tinim bilmasin,  
Tuning tundlik qilmasin.  
Bilmasin umring to'zim,  
Quvonib ko'rsin ko'zim.  
Sening ko'kalam fasling,  
Xumormi sayronlarga?*

*Olgab nasabu, naslin,  
Hayratmi hayronlarga?  
Kunlar o'tar, kunlarmas,  
Sening, mening - umrimdir.  
Bu umrda goh sarmast,  
Goh mahzuni - qumrimdir.  
Ochiq qo'l, oq dillikni,  
Orgatib odillikni.  
Shunday kelki, qolarga,  
Baxtni qamrab olarga!..*

## ***SHU ROSTMI?***

*Meni sevar emishsan,  
Menga saralab atay,  
Gullar terar emishsan,  
Shu rostmi?  
Menga xumor emishsan,  
Xayolimda ko'z yummay,  
Tunlar bedor emishsan,  
Shu rostmi?  
Mendan so'zlar emishsan,  
Yo'llarimda bildirmay,  
Yonib bo'zlar emishsan,  
Shu rostmi?  
Men ham sevishligimni,  
Seni deyishligimni,  
Bilmay xunob emishsan,  
Shu rostmi?..*



## NEGA?

*Nega cho'kib ketmadim  
ko'zlaringga o'shanda?  
-Nega. nega?! - deb nega  
yashar bo'ldim kishanda.*

*Yomon ko'z, yolg'on so'zdan  
kunday kulib o'tgandim.  
Kechib kecha, kunduzdan,  
gulday so'lib kutgandim...*

*Ko'zimga bir dasta gul,  
chamanu bog' ko'rindi,  
G'ubordan arib ko'ngul  
oy ham bedog' ko'rindi.*

*Ikki daryo sirlashdi,  
orzu - o'ylar birlashdi,  
Har nafasi harorat  
issiq quchog' ko'rindi.*

*Samoda sara ranglar,  
saboda sar ohanglar,  
Bol - mevasi shig'il gul,  
shoxu butoq ko'rindi.*

*Do'stlar bilan dastlashtib,  
yovlar bilan qasdlashib,  
Yurgan kunlar yo'q bo'lib,  
har damim chog' ko'rindi.*

*Yo'llarimda suzib ko'z,  
bo'zlaganim sen eding.  
Qalbin ochmoq uchun so'z  
izlaganim sen eding.*

*Ishqiy xatlar pinhona,  
yo'llaganim ham o'zing.  
Har qadamda parvona,  
qo'llaganim ham o'zing.*

*Do'stlariga "jonim" deb,  
so'zlaganim sen eding.  
Umrbod hayotim deb  
ko'zlaganim sen eding.*

*Nega ketmadim cho'kib  
ko'zlaringga o'shanda?  
Sevgi oyatin o'qib,  
so'lar bo'ldim gulshanda...*

***QO'SHIQ BO'LIB...***

*Ey go'zal, yonog'ingdan,  
Ol lola rang oldimi?  
Sho'x kulgu, xandoningdan  
Shalola tang qoldimi?*

*Dur tishlaring yashirgan,  
Labmi, gul yaprog'imi?  
Dil ummonim toshirgan,  
Visoling firog'imi?*

*Qarshingda bulbul misol,  
Kuylasharlar, gulmisan?  
Ey go'zal, labzi halol,  
Beg'ubor ko'ngulmisan?..*

*Senga mahtal bo'layapti,  
Oq tilakli sho'x yigit.  
Turli o'yga tolyapti,  
Sher bilakli cho'g' yigit.*

*Tushkunlikka tushmasin,  
E'tiborsiz bo'lma, qiz.  
Senga etsin ming tahsin,  
Baham ko'rib, bo'l mayiz.*

*Charog'on etib yubor,  
Xayotini zavq bilan.  
Arisin dildan g'ubor,  
Sarxushlikning shavqidan.*

*Eshik qoqib kelayapti  
Go'dak kabi gulbahor.  
Beg'ubor, begard, tanti,  
Go'dak ta'bli gulbaxor.*

*Bu kunni yaxshilik-la  
Kutib olgin, yaxshi qiz.  
Baxting keldi-ku tikka,  
Tutib qolgin, yaxshi qiz.*

*Bu kunga etganlar bor,  
Etmaganlar ham talak.  
Hech kim hech bee'tibor,  
Qolmasin deb dil xalak.*

*Navro'zning quvnoq sasi  
Bilan baxting yaralsin.  
Mehru ishq tantanasi  
Qo'shiq bo'lib taralsin.*



## ***SENI SOG'INIB BORIB***

*Seni sog'inib borib,  
Sog'inchingni ko'rmadim,  
Senga talpinib borib,  
Topinchingni ko'rmadim.*

*Alam qildi o'zimga,  
Armon to'ldi ko'zimga,  
Yupanchingni ko'rmadim,  
Ovunchingni ko'rmadim.*

*Tilimga so'z kelmadi  
Dilimdag'i so'zlarim,  
Uzun tunlari bedor  
Takrorlagan bo'zlarim.*

*Yo'l-yo'lakay o'zimni  
Qiynab qaytdim va aytdim:  
Nega yondi va tondi  
Ozoridan ko'zlarim!*

*Go'yoki keng osmondan  
Tushib ketgan oy edim.  
Qirg'og'ini yo'qotgan,  
Uzani yo'q soy edim.*

*Yulduz eding, kiprikka  
Qo‘ngan yoshga aylanding.  
Kamon qoldi sarg‘ayib,  
Uchib ketgan yoy edim.*

*Kunlar, haftalar, oylar,  
Meni undan sovuting.  
Gulchexra, baxoroylar,  
Meni aldang, ovuting.*

*Osmонимга oy bo‘lib  
Qaytmagunicha yорим,  
Bardoshimга ballи, deb  
Aytmagunicha yорим.*

*G‘am-tashvishni unutib,  
Ming bir sinovdan o‘tib,  
Kо‘rar ko‘zlarim bo‘ling,  
Aytar so‘zlarim bo‘ling.*

*Mayli, ishqimu rashkim  
Aro unga yov eting.  
Dardimni elga yoyib,  
Kitob qilib, chop eting.*



## **BAHOR KELDI**

*Yuragimning xijilini yozguvchi,  
Yozib turib bor-yo'g'idan ozguvchi,  
Shirin zabon, achchiq azobim mening,  
Ko'pdan beri gung, kar zabonim mening.*

*Ko'pdan beri ko'pga kelgan to'yimsan,  
Menga bo'ylab bo'y qo'shilgan bo'yimsan.  
Nega bizni qovjiratdi keng dunyo,  
Suv bo'yida suvga tashna kuyimsan.*

*Alam-alam, bizga alam hayot bu,  
Goh kuldirar, goh so'ldirar bayot bu.  
Bu bayotning avjlari ajablidir,  
Kimga sayr, kimga sayyid, sayyod bu.*

*Umr eldek o'tar, tutdek to'kilib,  
Bir-birovga tirak qadlar bukilib.  
Ikki qirg'oq, ikki chetda yonmaylik,  
Elga uchgan har damimiz o'kinib.*

*Eng dahshati - yonishni ko'rayaomiz,  
Bir-birovdan tonishni ko'rayaomiz.  
Essiz umr, essiz zoe yoshligu,  
Yig'isifat xonishni ko'rayaomiz.*

*Bir-birovni aldashda ustaburro,  
Bir-birovdan ayb topib tillar burro,  
Bu maynavoz, safsatavoz juftlikni,  
Ortga otib, o't qo'ysak edi, gurro!*

*Afsuski biz yonishga ko'nayapmiz,  
Bir-birovdan tonishga ko'nayapmiz.  
Kun va tunni tenglashtirib, kel, Navro'z,  
Iforlarin taratsin rayhon, yalpiz.*

*Gul-chechakka boqib, aqlimiz kirsin,  
Odam qalbga odam shaklimiz kirsin.  
Men o'zimni topshiray o'zingga, yor,  
Qonimizda yoshlik zavqi yugursin.*

*Yomon ko'rib ketganiningni yaxshi ko'r,  
Achchiq gaplar aytganiningni, deb kechir,  
Qor yog'di, iz bosildi deb dilingdan,  
Chang-g'uborni yuvgan yomg'irdek o'chir.*

*Yuragimning xijilini yozguvchi,  
Yozib turib bor-yo'g'idan ozguvchi,  
Mening yorim, yana majnunlikka qayt,  
Bahor keldi, etdi jununlikka payt!*



## DARD CHEKAMAN

*Dard chekaman yor ko‘zlari deb,  
Ko‘z tikaman yor so‘zlarimi, deb.  
Yurarman hislarim jilovlab,  
Men haqdagi gap-so‘zlarni eb.*

*Nega menga bunday qarashar?  
Kundai kulsam tunday qarashar?  
Yor yo‘lida tosh bo‘lib qotsam,  
Tosh deb tepib, tosh deb qarg’ashar?..*

*Qulatarlar qorli tog'larni,  
Gullatarlar dardu dog'larni.  
Yorim esa parvoyi palak,  
Bilar faqat bandu bog'larni.*

*Ko‘ngil g’amin aritar qani?  
Hijronlarni qaritar qani?  
Telba hisni jilovlab xiyol,  
Ko‘z oldimni yoritar qani?*

*Ishq hijroni aro berkinib,  
Qani, deyman g’amga chekinib.  
So‘ng o‘zimni ovutsam ko‘n deb,  
Yor ko‘rinar ma'yus, o‘kinib.*

*Yor ko‘ziga cho‘kib ketay men,  
O‘kinchlarin to‘kib ketay men.  
Ey voh, yana chiqdim o‘yindan,  
Ishq oyatin o‘qib ketay men.*

*Yuragimni tortiq qilaman,  
Yuragimdan ortiq bilaman.  
Hech bir imkon qolmay bu darddan,  
Visoliga jim yiqilaman.*

*Meni qiynab, xuzurlanarmi,  
Qiynadim deb uzrlanarmi?  
Yoki yangi na’malar bitib,  
Aldovlarga xozirlananarmi?*

*Huzurimda ichadi qasam,  
Shivirlaydi: "Menga yoqasan".  
Qabul etib men yo‘g‘u borin  
Tortsam netay yor e’tiborin?..*

*Nega bilmay qoldim me’yorni,  
Farqlamayin sog’ni, bemorni,  
Qattiq suyub, kuyib qolgan men,  
G’urbatlarga eltgan bahorni...*

**EY, YIL!**

*Ey, yil, sening salobatingdan,  
Ming bir turfa talofatingdan,  
Oy - kunlarga malomatingdan,  
Yashar bo'ldim yuragim yonib,  
Erga tekkan kuragim yonib.*

*Ota-onam munkayib borar,  
Ukalarim og'rib dil yorar,  
Bu kichraygan jussa yolvorar:  
Bu yog'iga shoshilmay yur, yil,  
Bag'ri butun chog'imday tur, yil!*

*Sen-ku meni sevding kun sayin,  
Boshim silab shamoling mayin,  
Bahoru yoz halovat tayin,  
Kuzimni ham serhosil qilib,  
Endi bag'rim olyapsan tilib!*

*Sochimga oq tushdi, chidadim,  
Boshga firoq tushdi, chidadim,  
Baxtim yiroq tushdi, chidadim,  
Chidamayman endi dolg'angga,  
Ishonmayman o'roq- bolg'angga.*

*Ishonaman ishchan qo'limga,  
Tufuraman meshchan yo'limga,*

*Shoshilmayman ammo o'limga,  
Shuning uchun sekinlanib tur,  
Oq - qorani menday tanib yur!*

*Yaratishga qodirliging rost,  
Yashnatishda nodirliging rost,  
Vujudimda hamon ehtiros,  
Qaritmay tur g'urbating ortib,  
Qadamimdan shiddatni tortib!*

*Tun-kuning bor - muvozanatli,  
Mezbonliging - mulozamatli,  
Ko'nish mumkin mard, azamatli  
O'g'lon mo'min cholga aylansa,  
Gulruhsorlar kampir saylansa.*

*Qo'limda yoy, bag'rimda kamon,  
Ko'zlarimda bir hadik hamon,  
Yuragimga o'xshaydi zamon,  
Shoshilmay tur, shoshiltirmay tur,  
Menga qolsa mensiz yurmay ko'r.*

*To'xtab qolsin baxtiyor damlar,  
Dildan arib yo'qotish, kamlar.  
Nega kunni yana tun yamlar?..  
Hech kim bilan ishi yo'q ey, yil,  
Hech bo'lmasa hijrondan tiyil!*



## KO'Z TASDIQLAR

*Men suzardim suvlarda cho'kmay,  
Ko'kka yetar edim uchoqda.  
Go'yoki do'l, yomg'irda bo'kmay,  
Ketar edim yoniq quchog'da.*

*Tuyg'ularim sig'may tanamga,  
Chopgan o'zim, yugurgan o'zim.  
Goh o'ralib bahoriy rangga,  
To'rt faslga ulgurgan o'zim.*

*O'z-o'zimni axtarib, kezib,  
Yurdim quyosh bilan muttasil.  
Shudringlarning ta'mini sezib,  
Yastangandi o'tloq yam-yashil.*

*Yuragimga singgan tuyg'udan.  
Bir qo'shiqday taraldim xurram.  
Ishq uyg'otdi meni uyqudan,  
Orzulardan yaraldim ko'r kam...*

*Bu serg'alva dunyodan qochib.  
Uyg'onmasam bo'larkan shu tong.  
Do'st-dushmanga sirimni ochib,  
Shuurimni parmaladi ong.*

*Ko'z tasdiqlab, qorachiqlarim  
Ko'rligimga muhr bosdilar.*

*Yurakdagi oh, sanchiqlarim  
Gung, soqov deb tashhis yozdilar.*

*Tunni yorib chiqqandim ming bor,  
Ko'rib turgan ko'zlarim bilan.  
Yurak ko'zin ko'rmoqligi bor,  
Deb donishmand so'zlarim bilan.*

*Kelmoqlikning ketmoqligi bor,  
Oqmoqlikning tinmoqligi ham.  
Tunni quvib kunduzlar bedor,  
G'aflat uyqu inmoqligi ham...*

*Chopar bir o'q atrofida er,  
Tunni yorib chiqadi quyosh.  
Butun olam go'yo g'amim er,  
Ko'zlarimdan artmoq bo'lib yosh.*

*Mehru vafo kamomadligin  
Bekor qilar ona maskanim.  
His qilaman omonatligim,  
Terib turfa ko'ngildan taskin.*

*Xalqim, sening to'yingda turay,  
Bo'lib olay g'amda g'amlaring.  
Erkalanib bag'ringda yuray,  
Sening bilan to'lsin kamlarim!*

1995.

***GOX BAXT, GOH G'AM***

*Ko‘zlarimda yosh bo‘lib qotgan  
 So‘nggi sabr, bardoshsan, yorim.  
 Meni zamin qa‘riga otgan  
 Qaro kunga darddoshsan, yorim.*

*Tunlarda qon yig’latgan azob,  
 Kunduzlari g’ash etgan dilim,  
 Tinch yo‘limdan chalg’itgan azob,  
 Zaharhanda aylagan tilim.*

*Olov jismim kuydirib uchgan  
 So‘ngsiz alam, armonsan yorim.  
 Kelmas yoqqa bemahal uchgan  
 Turnalarga darmonsan yorim.*

*Ta’riflashga yetmas madorim,  
 Bo‘g’zimdagи nolamsan, yorim.  
 Qiyomatga qolgan diydorim,  
 O’shal og’ir jolamsan, yorim.*

*Ikki jaxonimga sig’magan  
 G’urbatimni so‘zlayin qanday?.  
 Don sochib lek mashoq yig’magan  
 Xolatimni izlayin qanday?*

*Qantday umrim sho'r bo'ldi qanday,  
Achchiq bo'ldi, ko'ρ taxir.  
Yashadimmi baxtiyor anday,  
Nima ko'rdim dunyoda axir?*

*Kunni quvib tun yurar dunyo,  
Goh baxt, goh g'am qilar tantana.  
Yaratishga ulgurar dunyo,  
Borni yo'qqa chiqarib yana...*

*Yana oppoq tong otar sho'x-sha'n,  
Yana quyosh ketar ufqqa.  
Chiqmas bo'lsa qanday yashayman  
Dunyoni suv bossa to'piqqa?*

*Osmonimdan yaralgan osmon  
Hayotimga omuhta jonsan.  
Hotirang har onimga posbon,  
Sening o'zing bitta jahonsan.*

*Dilga solgan firoqlaringning  
Rasmin safsar gulga o'xshatay.  
Yoqib ketgan chiroqlaringning  
Shu'lasida isinib yashay.*



## YALINIB...

*Yalinib kelmadim oldingga,  
Tilanib kelmadim sadaqa.  
Yangi kun, yaxshi kun oldidan  
Dushmanim qolmasin sendaqa.*

*Keldim men ko'zingga tikilib,  
Yurakdan gaplashib olgani.  
Do'st bo'lsang poyingga egilib,  
Sof dildan taftlashib olgani.*

*Yangi kun, yaxshi kun deb intiq  
Kutganlar ko'p axir navro'zni.  
Gaplashib olaylik boqib tik,  
Chekkaga surib har gap-so'zni.*

*Qani bir gaplashib olaylik,  
Sochlarga qo'nganda oq qirov.  
Mayli so'ng parvona bo'laylik,  
Ishonib, tan olib bir-birov.*

*Boshlandi samoning burjida  
Xut-yutning Xamalga o'tishi.  
Dexqonning g'ayrati urchidi:  
Niyatning amalga o'tishi.*

*Xasan-Xusan kamalak yoyi  
Yasandi ko'k darvozasida.  
Mehr-vafo, yarashish oyi,  
Navbahorning andozasida.*

*Ona erga sochilgan bug'doy,  
Boshog'ining xoliga qara.  
Ko'ksingga taq shafqatni tug'day,  
Bechoraning chorasin so'ra.*

*Ko'ngilga qadaylik yaxshilik,  
Ezgulik urug'in asrab biz.  
Va peshvoz quyoshga chiqaylik  
Sog'ingan vujudni o'nglab biz.*

*Boshi va oxiri ko'rinnmas  
Uzun yo'l ekan-ku bu olam.  
Rostlikdan qay dilga qo'r inmas,  
Ulg'aymas mardlikda qay odam?*

*Qo'y endi g'iybatu ig'veni,  
Tagi yo'q fitna-yu fasodni.  
Chalmagin ul eski nag'mani,  
Sev yangi bu go'zal hayotni.*

*Yalinib kelmadim oldingga...*



## NAVRUZ

*Tilak emas, tiriklik tilab,  
Tunni kunga xotirjam ulab,  
Dunyo emas, diyonat talab  
Damlaringni yoritar Navro'z.*

*Ming yil yashab, ne'matga yetish,  
Peshonangda yozilmish ketish.  
Og'ir demay barin tark etish,  
Orzularing yor etar, Navro'z.*

*Odil do'stu nobakor qani,  
Zukko qani, notavon qani?  
Qaro Erga ketdi-ku tani,  
G'amlaringni qaritar Navro'z.*

*Uch kunlikdir dunyo degani,  
Ketgan ketar, kelgan ekaning  
Bilarkansan o'rsang ekkaning,  
Kamlaringni aritar Navro'z.*

*Yo'lga yo'lchi uy qurarmi, ayt,  
Tavakkalchi o'y surarmi, ayt?  
Oy bir erda tinch turarmi, ayt,  
Olg'ir bo'lsang, or etar, Navro'z.*

*Ulug'vor, baxt, davlatdan shodlar,  
Mag'rurlanib uchgan qanotlar,  
Qaytar bo'lib qichqiriq, dodlar,  
Xotirangni horitar Navro'z.*

*Iting ketdi "ha" demay, ham "yo'q",  
Ov qilmasa ov qushing, g'am yo'q.  
Tunu joning qutursa, dam yo'q,  
Xayratingni xor etar, Navro'z!*

*Bu robotda shoxmiz, gadomiz,  
Qalqib turgan qalbdan adomiz.  
Lek hayotga behad shaydomiz,  
Shaydo dilni yor etar Navro'z.*

*Zexn solsang dunyoning bori  
Mashaqqatdir tarzi, raftori.  
Poyingda er, boshingda dori,  
Aro senga xavf etar Navro'z.*

*Xuvillagan dillar taskini,  
Guldiragan tillar maskani,  
Quchog'ingga quvnab bosgani,  
Kelib dilni avf etar, Navro'z.*

*Ravon joning bergan xudoga,  
Olqish aytding tushib judoga.*



*Jondoshingga, joning fidoga  
Jazm etsang mahf etar, Navro'z.*

*Bu dunyoda ko'char karvonmiz,  
Qalqqan qalbdan qulmiz, sarbonmiz.  
Oyoq osti, narvon-armonmiz,  
Olamingni fahm etar, Navro'z.*

*Na bek, na qul va na payg'ambar,  
Qani dilbar, sochlari anbar?  
Shoshib kelib, sochib mushk-anbar,  
Yo'qotganing sharh etar, Navro'z.*

*Gul yoyadi qirga, qabrga,  
Qalqon qilar qadni sabrga.  
Muhtoj emas tushlar ta'birga  
Bardoshingdan faxr etar, Navro'z.*

*Ta'nasi yo'q bevaqt o'limning,  
Armonlarin ko'klab o'g'limning,  
Gulga o'rabi o'ngu so'limni,  
Ko'z yoshimga g'arq etar, Navro'z.*

*G'am-alamlar unutiladi,  
Yig'lagan ko'z bir kun kuladi,  
G'am o'ladi, g'amkash o'ladi,  
Vasvasangni tark etar Navro'z...*

## KASHFIYOT

*Kuni bo‘yi nur sochgan quyosh  
Yonboshladi ufqqa sekin.  
Oymomaga marjondek ko‘z yosh  
Indi yulduzchalardan lekin.  
Har bir uyga orom ulashib  
Chiqqan shamol yugurdi, eldi.  
Qayoqqadir karvonin tashib,  
Qora bulut quyundek keldi.  
Ketdi yulduz - oyning ko‘z yoshi,  
Oymomaning o‘zi ham ketdi.  
Eh, shamol-a, shamol-a shoshib  
Dil suhbatin boshiga etdi.  
Ketgan qushlar keldilar yana,  
Yaproq yoydi daraxt iymanib.  
Yashash zavqin qildik tantana,  
Etgan ketdi qishda tiyg'anib...  
Avvalimdan alam tuyib men,  
Ko‘zda jola, ko‘ngilda nola...  
Avvalimdan tamom to‘yib men,  
Ko‘z yoshimda o‘stirdim lola.  
Qip-qizil rang olguncha gulim,  
Qor eridi, muzlar suv bo‘ldi.  
Sabrimga tang qolgancha o‘lim,  
"Bardoshingga balli!" - deb o‘ldi.*



O'ldi o'lim, lolam barq urib,  
Ko'zlarimga cho'g' tashlagan dam.  
Vujudimdan hasratni qo'rib,  
Gulim kuldi dil g'ashlangan dam.  
Qoyil qolib dunyoning tun-kun  
Quvlab yurar quvonch-g'amiga,  
Hayratimga yasayman yakun,  
Ko'nib issiq-sovuq damiga...  
Darmon tuydim, armon tuydim deb,  
Yurgan kecha - klinikidan kechib.  
Yosharganday xazon yoydim, deb,  
Daraxtlar ham ust-boshin echib.  
Qish ham o'tdi, unutilib kuz,  
Ayriliqning jabrini tortib.  
Sen bahordan umidingni uz,-  
Degan gapni elkaga ortib.  
Qaddim eggan shamollar tindi,  
Eski g'amni qo'ydim kechamga.  
Beixtiyor yorug'lik indi,  
Chiroq yoqsa yonmas ichimga.  
Bu dunyodan yorug'lik istab,  
Ranglar aro tik yashash kerak.  
Ezgu niyatiningni dastalab,  
Yangi kunni qarshilash kerak.  
Qolganlarning shukrini qilib,  
Yashamoqni o'rganganlar ko'p.  
Har damini g'animat bilib,  
Yashash uchun uringanlar xo'p.

*Mangu emas jahonda jonzot,  
Har kim uzoq umrin kashf etsin.  
Bu olamda baxtiyor, ozod  
Va xotirjam yashashga etsin.  
Avvalidan alam tuyganlar  
Chaqishar har satrimning mag'zin.  
Tilin chaqib olmasin ari,  
Endi oshga etganda og'zi....*

### **MYENI QIYNAB**

*Meni qiyab bedavo sevgi,  
Yuragimda yig'ildi dardim.  
To'kib solmoq bo'lib barisin,  
Hamma yoqdan seni axtardim.  
Uchratdim ham seni, qorako'z,  
Kulib chiqding talpinib menga.  
Men ham kuldim demay biror so'z,  
Hayajonda gul tutdim senga.  
E'tiboring tortgancha gulga,  
Senga to'yib tikildim, lekin  
Qulf solib otashin dilga,  
Qaytib ketdim orqamga sekin.  
Dardkash qilgim kelmadi rosti,  
Bo'lolmadim quvnoq so'zlarining.  
Chunki boqib shod, ehtirosli,  
Porlab turar edi ko'zlarining.*



## AYTING

*Qorlarida gulning isi bor.*

*Nurlariga chulg'angan bahor.*

*Jajji qalbdan to keksa bobo,*

*momolari ko'nglida alyor,*

*Ayting, bu yurt qaer,*

*Qaysi joy?*

*Pag'a-pag'a yog'ayotgan qor*

*ostida men sayr etib viqor*

*tuyarkanman, yorug'lanib qalb,*

*men bunchalar deyman, baxtiyor,*

*Ayting, bu yurt qaer,*

*Qaysi joy?*

*Hamma narsa ko'zimga go'zal*

*ko'rinarman tug'ilalar g'azal.*

*Sho'xlik qilib qor otgan bola*

*ko'zlarini ko'rganman azal.*

*Ayting, bu yurt qaer,*

*Qaysi joy?*

*O'xshab ketar bu ko'z o'zimga,*

*otam kabi issiq ko'zimga,*

*Buncha o'xshash bu nigoh, bu ko'z,*

*deyman qarab o'g'il-qizimga.*

*Ayting, bu yurt qaer,*

*Qaysi joy?*

*Kelayotgan bir to'p bolalar,*

*suhbat qurgan gullar, lolalar*

*So'zlariga qulog tutaman,  
o'rlamaydi munqlar, nolalar.  
Ayting, bu yurt qaer,  
Qaysi joy?  
-Qaysi davlat eng kuchli davlat?  
-Amerika bo'lsa kerak-da,  
Etolmasdan ko'plar xalak-da,  
degan gapdan ko'zlarda hayrat.  
Ayting, bu yurt qaer,  
Qaysi joy?  
Nima bizga Amerika, voy,  
O'zbekiston eng qudratli, boy!..  
Bolalarcha bu suhbatdan shod  
yuz-ko'zlarda balqib turar oy,  
Ayting, bu yurt qaer,  
Qaysi joy?  
Bolalikda senga tegishli,  
har neki bor, boqasan ishqli.  
Senga yaqin insonning bari  
hurram erur, yurmas tashvishli,  
Ayting, bu yurt qaer,  
Qaysi joy?  
Bu beg'ubor tasavvurlardan,  
ulg'aytirgan el-g'ururlardan,  
qalbingni zabit etgan Vataning  
bahramanda baxt, sururlardan.  
Ayting, bu yurt qaer,  
Qaysi joy?..*



## KO'ZLAR

*Boshim ko'kka yetgaydir,  
Bir so'roqlab kelsangiz.  
Tun yiroqlab ketgaydir,  
Siz charaqlab kelsangiz.  
Boychechakka qo'r tashir  
O'zni bahor bilsangiz,  
Men doim o'n besh yashar,  
Siz o'ttiz yosh bo'lsangiz.  
Vaslingizni oy, yillab,  
Yashadim sizni tilab.  
Men surmako'z qiz edim,  
Siz qalamqosh bo'lsangiz.  
Dilimda bir muddao,  
Tilimda bir kalima:  
Siz deb bo'larman ado,  
Qiyo boqing salgina.  
Men o'zim kerak qo'rni  
Toparman shu boqishdan.  
Aytay kelganda o'rni:  
Qo'rqing menga yoqishdan!  
Boshim osmonga etar,  
Zavqqa to'lib kelsangiz.  
Oyga qo'r tashlab ketar  
Quyosh bo'lib kelsangiz.*

*Yuragimga o‘t ketar,  
Lov-lov yongan lolaman.  
Xo‘l-quruq yonib bitar  
Alangada qolaman.  
Yongan yurakning sizga  
Cho‘g‘i tushmay iloj yo‘q.  
Nima bo‘ldi deb bizga,  
So‘zlashishga tilmoch yo‘q  
Farosat-fahm qilib,  
Yorim, kelar bo‘lsangiz,  
Siz menga rahm qilib,  
Alangamda so‘lmangiz.  
Yonib-kuygan paytimda.  
Menga yordam bermanglar.  
Olovnii she‘r, baytimdan  
O‘chiray deb yurmanglar.  
Yor vaslini oy - yillab  
Kutdim bir mo‘jiza deb.  
Yashadim vaslin tilab,  
O‘ylamang ojiza deb.  
Oh, til qotgan tanglayda,  
Dilda tugun sir-asror.  
Qachongacha, voh, qanday  
Ko‘zlar siringiz asar?!.*



## HUSH KELDING

*Inqilob davom etar  
dardliga davo berib,  
Umidvor qanot qoqqan  
dillarga navo berib,  
Halol mehnat diyori  
xuzurbaxsh xavo berib,  
Haqiqatdan xabardor  
ellardan aytgil, Navro'z,  
Ezgulikka daxldor  
dillardan aytgil, Navro'z!  
Dunyoni obod etgan,  
tashrifingdan aylanay.  
Do'stu yorni shod etgan  
tashrifingdan aylanay.  
Diydorlashuv yod etgan  
tashrifingdan aylanay,  
Xush kelding chechan Navro'z,  
yoshartirib bizlarni.  
Gullarning iforiga  
burkab dala-tuzlarni.  
Navro'zga etolmagan  
marddan ko'z yummoq qiyin,  
Shahid ketganlar haqda  
xayolga cho'mmoq qiyin.*

*Lovullagan taningni  
tuproqqa ko'mmoq qiyin.  
Qiyinni oson qilgil,  
gul ustiga gul undir.  
Alvon lolazorlaring  
yoqib, mayli ko'z tindir.  
Xayot o'zi shunaqa  
bevaflo, birrov o'yin,  
Ezgu niyatrilarning  
Borar manzili tayin.  
Haq yo'lida haqiqat  
so'roqlarimni yor et.  
Iyomon, e'tiqod sobit  
so'qmoqlarimni yorit.  
Sirtmoqlarim aritgan  
tongdan gapirgin, Navro'z,  
Yo'llarimni yoritgan  
ondan gapirgin, Navro'z.  
Muhabbat qo'rin solgin,  
O'kinch tingan ko'zlarga.  
Aslo o'rin qoldirma,  
ta'na, taskin so'zlarga.  
Umidaga zabon ber,  
quvnab baxtin so'zlarga,  
Xush kelding chechan Navro'z,  
yoshartirib bizlarni,  
Gullarga, chechaklarga  
peshvoz etib bizlarni...*



## YASHAYSAN

*Eshitildi xo'rozning  
Uyg'on, degan ovozi.  
Yana jaranglab ketdi  
Hayotning jo'shqin sozi.*

*Ufq qizarib, quyosh  
Taradi oltin sochin.  
G'imirlab har keksa yosh,  
Tongga ochdi qulochin.*

*Yana bulbul xonanda  
Gul ishqida chertdi tor.  
Iliqlik oqib tanda,  
Yosharib ketdi bahor.*

*Xarir qanot kapalak  
Sho'x raqsiga qistaydi.  
Yaproqlar chalsa qarsak,  
Ko'ngil seni istaydi.*

*Bahorga peshvoz tog'ning  
Qorlarida ham sensan.  
Xajringda qotgan dogning  
Zorlarida ham sensan.*

*Qamaldagi xislarning  
Erkiga o‘xshaysan sen.  
Ortimdagi izlarning  
Ko‘rkiga o‘xshaysan sen.*

*G’oyib bo‘lding, Sulaymon  
Mulkiga uxshaysan sen.  
G’amboda kunda xandon  
Kulgiga o‘xshaysan sen.*

*Seni yozim, kuzimda  
Omon saqlab o‘taman.  
Qishda ham o‘z - o‘zimda,  
Vujudimda tutaman.*

*Uyqumda ham tark etmay,  
Tushlarimda paydosan.  
Bahorimdan ham ketmay  
Bir umrlik shaydosan.*

*Tuproq, xavo, suv bo‘lib,  
Olov tanda yashaysan.  
To‘rt unsurni yurt bilib,  
O‘z yurtingda yashaysan.*



## KIM BERDI?

*Gavharga*

*Seni menga kim berdi?*  
*Kim bersa-da, jim berdi.*  
*Jim bersa-da, oshufta*  
*O‘ylarga ko‘mib berdi!*  
*Rashku g‘amga omuxta*  
*Kuylarga cho‘mib berdi!*  
*Sarin eldek eshilding,*  
*Saxiy nurdek to‘salding,*  
*Asta-asta xayolim,*  
*Hayotimga qo‘silding.*  
*Tunim tobe kunduzga,*  
*Kunim tobe yulduzga,*  
*Yulduzdan tushgan mehmon,*  
*Tobeman sen gulyuzga!*  
*Suratingni chizaman,*  
*Sumbatingni chizaman,*  
*Ko‘rinmasang ko‘zimda,*  
*Kulfatingni chizaman.*  
*Mehru qahrim barobar,*  
*Qahru faxrim barobar,*  
*Seni yo‘qotsam, qayg‘um,*  
*Topsam - baxtim barobar.*  
*Bir suvmanu, bir o‘tman,*  
*Sen-la qanoti butman,*  
*Sendan istab visolni,*

*Firoqni aslo kutmam!  
Sig'inaman sabrimga,  
Jabr qo'shma jabrimga.  
Axir sen gul, gulyuzsan,  
Gullar aro yulduzsan.  
Kuylarga sho'ng'ib yursam,  
Quvonib, chaqnab tursam,  
Yulduzga tikilgan ko'ρ,  
Etmasa, o'kingan xo'ρ...  
Qo'lim cho'zsam qo'limga,  
Ko'nglim uzsam, ko'nglimga  
Shu'la ilashib chiqar,  
Chandon tillashib chiqar!  
Yulduzdan tushgan mehmon,  
Ko'klardan uchgan mehmon,  
Ko'klarga uchib ketma,  
Oh, mendan qochib ketma!  
Umr o'tkinchi asli,  
Yozu kuz, bahor fasli...  
Qishimda qaqqhatmagin,  
Saratonim totmagin.  
Men o'tgan fasllardan  
O'tib borasan, nahot?  
Umidvor nasllardan,  
Kutib borasan, nahot?  
Gulyuz, seni tabiat  
Nega kechroq yubordi?*



*Kechikib-da, sof niyat,  
Samimiyat-la qordi?  
Hislarimni jilovlab,  
Ko‘zlarimni olovlab,  
Alam bilan turibman,  
Armon bilan yuribman...  
Bu olov, bu armonlar,  
O‘t qarashing - darmonlar  
Oqibatida yonsam,  
O‘tgan umrimdan tonsam,  
Meni aldamaysanmi?  
Alqab, avaylaysanmi?..  
Ishonchim yo‘q o‘zimga,  
Ket, ko‘rinma ko‘zimga!..  
Kel, yolg’onga chekinib,  
Baxtli bo‘laylik bir pas!  
O‘tmishidan o‘kinib,  
Yasharlar faqat bizmas.  
Bu yolg’onchi dunyoga  
Qo‘shilib ketolmayman.  
Orzu chiqib ro‘shnoga,  
Oh, senga yetolmayman.  
Yonimda turibdi-ku  
Baxtim, sevimli malak!  
Jonimda yuribdi-ku  
Naqdim, nafis kapalak.  
Oh, nega tutolmayman,*

*Oh, nega yetolmayman?*  
*Senga kim endi ega,*  
*Kechikib kelding nega?..*  
*Yolg'onlarga to'shalib,*  
*Yo'q, kech emas, ayni payt!*  
*Chunki men xo'p yosharib,*  
*Go'zallahib ketdim, qayt!..*  
*O'zing uchun yashamoq*  
*Paytti o'tdi, azizim.*  
*Oldu orqangga endi*  
*Sinchiklab tashla razm...*  
*Sen gulyuzdan kattasan,*  
*Demak, avval ketasan.*  
*Seningsiz qoladi u,*  
*Izmingsiz qoladi u.*  
*Oh, hali boladir u,*  
*Qizg'aldoq, loladir u.*  
*Oson to'zib ketmog'i,*  
*Kimdir uzib ketmog'i,*  
*Ellarga chidamsiz u,*  
*Qo'rqadi odamsiz u...*  
*O'sha odam senmasmi,*  
*O'sha odam sevmasmi?!*  
*Ayt, yolg'onchi dunyoda,*  
*Yolg'onchilar yasharmi?*  
*Bu olamning yarmi baxt,*  
*Alam-anduhmi yarmi?*



*Ko‘zimga ko‘rindi oy,  
Tunda bi-ir chuvrindi oy.  
Sir, sehrga boy bitta.  
Ham mehrga boy bitta...  
Men yulduz bo‘lib qoldim,  
Mingta yulduzdek bitta!  
Oy bittadir, oy bitta,  
Men o‘zni qo‘lga oldim!  
Qori bilan go‘zal tog’,  
Gul bahori bilan bog’.  
Osmondan tushgan mehmon,  
Nimaga yuzingda dog’?  
O‘ttiz besh yoshimda men  
Ne uchun xumoringman?  
Men seni shamollardan  
Asragay chinoringman!  
Sen gulyuzdan kattasan,  
Demak, avval ketasan,  
Orqangda qoladi u,  
Oh, sensiz qoladi u!  
Oh, hali boladir u,  
Qizg’aldoq - loladir u.  
Oson - to‘zib ketmog’i,  
Kimdir uzib ketmog’i,  
Ellarga chidamsiz u,  
Qo‘rqadi odamsiz u.  
O‘sha odam - senmasmi,*

*O'sha - odam, sevmasmu,  
Ko'zimga ko'rindi oy,  
Tunda bi-ir chuvrindi oy.  
G'arib, yoydan qolishmas.  
Oy bittadir, oy bitta,  
Sir, sehrga boy bitta,  
Ham mehrga boy bitta...  
Men yulduz bo'lib qoldim,  
Mingta yulduzdek mitti...  
Osmondan tushgan mehmon,  
Men kichrayib ketyapman.  
Ko'klardan uchgan mehmon,  
Nahot senga etyapman?!.  
Umr - o'tkinchi asli...  
Umrим o'tinchi asli -  
Senga etmoqmi gulyuz?  
O'zni etmoqmi gulyuz?..  
Ne bo'lsa bo'ldi shunda,  
Ko'hna dunyoi bunda!  
Dunyo yolg'onchi emas,  
Borligimiz rost-ku, bas!  
Ko'ngil tilagi- yasha,  
Yashaganga yarasha!  
Yulduz umri sendadir,  
Gulyuz ko'ngli sendadir,  
Demak yo'ling chindandir,  
Demak, hayot - shundandir!*



## YANA BIR YIL

*Haftalar oylarga ulanib,  
Kam-ko'stlardan butlik tilanib,  
Yana bir yil yashabmiz omon,  
Bu yaxshimi va yoki yomon?  
Juda yaxshi, juda ham yaxshi,  
Qarsak chalar yulduz, oy baxshi.  
Sababi, biz doim bandlikda,  
Yashadik chin andarmonlikda.  
Ko'ksimizga joylab shonini,  
Taqib g'oliblik nishonini,  
Yoshimizga yoshi tenglikda,  
Ko'ngil rohat topdi kenglikda.  
Tongni va'da qilar tunlardan  
O'tdik qarzdor bo'lib kunlardan.  
Hech kim bilan ishi yo'q osmon,  
O'z o'qida er chopar oson.  
Esayotgan daydi shamollar,  
Qor, yomg'ir, do'l bilmay zavollar,  
Oy uyg'onib, quyosh kularda,  
Deymiz, ishimiz bor ularda!  
Ishimiz bor bari-barida,  
Hatto ilon, chayon, arida.  
Ular yashar bo'lib zamondosh,  
Bizlar bilan bo'lib makondosh.  
Ma'lum ular hayotin tarzi,  
Tinglaylik qurt-qumursqa arzin.  
Hisob berib doim bir-birov,*

*Deylik bunga kelgannmiz birrov.  
Ariqchalar shildirab, chak-chak,  
Muzlar bersa bahordan darak,  
Yozni muhofazalab qishdan,  
Qutulaylik, deymiz tashvishdan.  
Qatqaloqni yorib boychechak  
Ko'ngilga zavq solar oychechak.  
Ko'kka talpinishga shay maysa,  
Ishimiz bor unda ming paysa!  
Ko'nglimizni o'stirsin o'zi,  
Axir bizda mavjudod ko'zi.  
Jonli, jonzot, ongli, omilar  
Shirin jonimizga omillar!  
Illatlarni yashiradigan,  
Fazilatni oshiradigan,  
Yuraklarga sajdalar etdik,  
Kelajakka mujdalar bitdik.  
Bizga boqiy hayot ber, dunyo,  
G'ayrat ber, kuy, bayot ber, dunyo.  
Kuch ber o'zga dardin bo'lishga,  
Er, ko'k, havo qadrin bilishga.  
Zerikishga hojat qoldirmay,  
Umr yo'llarida toldirmay,  
Qo'lni qo'lga qo'yib yashaylik,  
Baxt nash'asin tuyib yashnaylik.  
Kaftdag'i har chiziqdek ayon,  
Olamimiz aylab namoyon,  
Yana bir yil yashab qo'yibmiz,  
Kimdan kuyib, kimni suyibmiz...*



## ***LOLAQIZG'ALDOQ***

*Yal-yal yonib, kulaver,  
qilmayman parvo,  
lolaqizg'aldoq.*

*Yal-yonib turishing  
chiroyli, ammo,  
barisi aldoq.*

*Chunki senga yugurib  
etganim chog'da,  
xatto havasmand turib,  
tutganim chog'da,  
to'zib ketasan.*

*O'ynoqi shamollarga  
qo'shilib bog'da,  
o'ynoqi shamollardek  
eshilib bog'da  
suzib ketasan!*

*Qaramayman senga deb  
turgan onimda  
paydo bo'lasan.*

*Paxsa devordami.  
tommi, tongimda  
ado bo'lasan.*

*Yal-yal yonib kulishing  
quyoshdek porloq,*

*lolaqizg'aldoq.  
Yal-yal yonib turishing,  
chiroyli, biroq,  
bilaman, aldoq.*

## **ATIRGUL**

*Gullarimning sarasi  
sensan, atirgul.  
Olam-olam gullarga  
mushking tatir, gul.  
Bog'imga chiroy qo'shgan  
o'zingsan yolg'iz.  
Ishq, nafosat gulisan,  
desam, - Suluv qiz,  
Avvali menga buncha  
maftun emasding.  
Husnimni, xushbo'yimni  
buncha sezmasding.  
Meni bir barno yigit  
tutgandi senga,  
shundan beri ardoqlab,  
maftunsan menga,-  
deya atirgul battar  
yoqar qalbimni.  
Tegizaman men asta  
gulga labimni...*



## SIZGA TALPINIB

*Men sizga talpinib, uchib kelyapman,  
Quyoshni qalbimda quchib kelyapman.  
Ming bir istihola, ming xil o'y bilan  
Biroz hadiksirab, cho'chib kelyapman.*

*Yastanib olibdi poyimda bog'lar,  
Gullarning bo'yini tuyib kelyapman.  
Yasanib olibdi purviqor tog'lar,  
Lolalar bazmini qo'yib kelyapman.*

*Kelyapman, ko'nglimning tori eshilib,  
Ko'ksimda eshilib bir bedog' hilol.  
Oymoma nuridan yo'llar to'shalib,  
Halinchakda uchgan kelinchak misol.*

*Kelyapman, oltindan taxtim go'yo naqd,  
Dilimda aylanib bitta so'z faqat:  
Qo'li-yu tilidan hech kimga, hech vaqt  
Yomonlik qilmagan insondadir Baxt!..*

## ***BU KUNLAR***

*Bir-birovga yarashibmiz bu kunlar,  
Pechak guldek chirmashibmiz bu kunlar.  
Bir-birovni qachon sevdik o‘zi biz,  
Qachon sevdik, ham sovidik o‘zi biz?*

*Nega unda alam bilan boqyapmiz,  
Dardlimizki, dardli, dardli oqyapmiz.  
O‘zanimiz, manzilimiz noayon,  
Qirg'oqlarga gulchambarlar taqyapmiz.*

*To‘lqinlardan sabr toshi chetlanar,  
Gulchambarlar toshlar aro qatlanar.  
Qabr toshi bo‘lmasin-ey, bu toshlar,  
Daryo dardim oqizmoqqa otlanar.*

*Chetda turmay, bizga siz yaqin bo‘ling,  
Ko‘k gumbazin teshguvchi chaqin bo‘ling.  
Qo‘l tutishga, yo‘l tutishga chog’langan,  
Ikki dilga tarjimon oqin bo‘ling.*

***INTIZOR TURIBMAN***

*Intizor turibman yo'lingda,  
Qo'lingni uzatgil menga yor.  
Gul-lola tutibsan qo'lingda,  
Gulingni uzatgil menga yor.*

*Nigohlar, nigohlar ta'qiblar,  
Oshkora olayin guling men.  
Panadan tikilar raqiblar,  
Yurayin, yurayin kulib men.*

*Ezguga chorlasin muhabbat,  
Oshkora sevaylik, sevilib.  
Ko'zlarda porlasin muhabbat,  
Yashaylik toledan sevinib.*

*Intizor turibman yo'lingda,  
Qo'lingni uzatgil menga yor.  
Ilk sevgim taqdiri qo'lingda,  
Qalbimni uzatgum, senga yor.*

## **SOG'INTIRDING**

*Kelmasliging bilsam-da, kutdim,  
Nimagadir talpindi yurak.  
Yo'llaringga ko'zimni tutdim,  
Yo'llaringga topindi yurak.*

*Eshigim tiq etsa tikildim,  
Gullar qo'ydim rasming oldiga.  
Keldingmi yor, deya berkindim,  
Sho'xlik bilan gullar ortiga.*

*Qolib ketsa o'rimdan sochim,  
Kelaringga yo'ydim, azizim.  
Yo'llaringga quvonchim sochib,  
Yana ortiq suydim, azizim.*

*Bilsam hamki kelmasligingni,  
Kelarsan deb bo'ldim intizor.  
Kuzatiboq sog'indim seni,  
Bunchalar tez sog'intirding, yor?..*



## ***ILTIMOSIM, UKAJON***

*Berib qo'ygin, gul opangga xatimni,  
Aytib qo'yma yaqinlarga otimni,  
Bardoshim yo'q o'zim borib aytishga,  
Sirlarimni to'kib-sochib qaytishga.*

- *Yo'q, yo'q aka, akajon,  
Opam juda qaqajon.  
Xat tashuvchi bola, deb,  
Kulib yurar har qachon.*

- *O'qishlari "Besh" bolasan, ukajon,  
Yaxshilarga esh bolasan, ukajon.  
Yillar o'tib yigit bo'lib meningdek,  
Muhabbatga pesh bo'lasan, ukajon.*

*O'qib-o'qib yetuk inson bo'larsan,  
Erta-indin yurtga posbon bo'lursan.  
Ishq sehrini, qiz mehrini yashirgan,  
Xat qadrini qaysidir on bilursan.*

*Ahvolimni ko'rib kulma, ukajon,  
Mendan sira xafa bo'lma, ukajon.  
Gul opangga berib qo'ygin xatimni,  
Aytib qo'yma yaqinlarga otimni...*

**SALOM, HAYOT!**

*Fasllarda dol bo‘ldim ba’zan,  
Yomg’ir, jala, do‘l bo‘ldim ba’zan.  
Yulduzsiz tun siqildim, keyin,  
Tuman bo‘lib yiqildim keyin.*

*Kuylarimni berdim tuproqqa,  
O‘ylarimni berdim tuproqqa.  
Bor-yo‘g’imni berdim va terdim,  
Gul-chechak, chog’lanib turmoqqa.*

*Sening sevging bir quyosh bo‘lib,  
Doim ko‘kka ko‘tardi kulib.  
Asta-asta qaddim rostlandi,  
Shum xotirlar nurab, ozlandi...*

*Xayolimni qo‘sinqqa ulab,  
Hislarimni kuyladim jo‘sib.  
Salom, Hayot, qadimiy qo‘sinq,  
Quchog’ingga ol meni qo‘sib!*



## QIYO BOQIB

*Menga qiyo boqib o'tdi bir yigit,  
Halovatim yoqib o'tdi bir yigit.  
Qaddu basti xayolimni band etdi,  
Qarashlari bir umrlik sir yigit.*

*Qoshu ko'zi popukdek bu kim bo'ldi?  
Ko'zlarida o'ynar kulgu, kim bo'ldi?  
Bejiz emas boqishi, o't yoqishi,  
Kim bo'ldi, deb so'rsam barcha jim bo'ldi.*

*Amma - xolam sirli kiprik qoqishar,  
Sochlaringga sochpopuklar taqishar.  
Uzun bo'lar sochlaringdek yo'ling deb,  
Tushlarimning ta'birini chaqishar.*

*Dugonalar jo'r bo'lishar jumboqqa,  
Mening bilan birga o'yga cho'mmoqqa.  
Ko'zlarimni jovidiratgan sirimni  
Mening bilan birga dilga ko'mmoqqa.*

*O'zim erda, ko'nglim kezar samoda,  
Eshitmasam o'gitlarni mabodo.  
Men haqimda turli o'yga bormangiz,  
Ishim bordir tutqich bermas saboda.*

*Sabo kabi sassiz o'tdi bir yigit,  
Qarashlari qalbga qalar sir yigit.  
Men bu sirning mushkulotin echolmay,  
Yugurarman eru ko'kda zir, yigit.*

*Yursam anqir yo'llarimda iforlar.  
Kulsam arir yuragimdan g'uborlar.  
Hatto qishda o'ylasam shu yigitni,  
Qaytib kelar yuragimga bahorlar..*

### ***ROZI BO'LSANG***

*Rozi bo'lsang sinab beraman,  
Ul qora ko'z, barno yigitni.  
Qalbini bir tirnab ko'raman,  
Eshitmasdan o'zga o'gitni.*

*Darchasidan irg'itaman gul,  
Qarab turgin bo'lib ehtiyyot.  
Agar sevsə seni chindan ul,  
Gul-lolamni qaytaradi bot.*

*Yo'qsa, asta boshin chiqarib,  
Nedir deydi, bo'lasan voqif.  
Sehrim bormish, senga ishqilib,  
Bo'lib qolmay bir umr raqib.*

## **O‘SHA SIZMI?**

*O‘sha sizmi, derazamdan goh  
Gul irg’itib yo‘qolgan besas?  
Yomg’ir bo‘lib, chertib oynamni,  
Xonam uzra boqqan serhavas?  
O‘sha sizmi, dimoqqa ellar  
Bilan bahor bo‘yin taratgan?  
Sochlaramni tortqilab mayin,  
Meni har yon hayron qaratgan?  
O‘sha sizmi, qor bo‘lib oppoq,  
Yo‘llaramni oqqa belagan?  
Qoshlarimdan, sochlaramdan sho‘x  
Hislar bilan shodlik elagan?  
O‘sha sizmi, tunlari mening  
Ko‘zlarimdan uyqumni olgan?  
SHirin o‘ylar, hayajonlar-la  
Yuragimga muhabbat solgan?  
O‘sha sizmi, o‘rik gullarin  
Sevgan barno, sevdirgan barno?  
O‘rik gulli ko‘ylagim kiysam,  
Pinhon boqib, lol turgan barno?  
O‘sha sizmi, umr bo‘yi men  
Izlaganim, izlatganim yor?  
O‘sha sizmi, ha, o‘sha sizziz,  
Talpinmaydi qalb, axir, bekor!*

## MUNDARIJA

Umid qo'shig'i .....	3	Ko'rindim .....	44
Salom .....	4	Shirin so'zlar .....	45
Bu olamda .....	5	Bog' etar .....	46
Azizim .....	6	Girdob .....	47
Bebahor .....	7	Yoshlik .....	48
Alyor .....	8	So'ragandim .....	49
O'ynadning .....	9	G'urur yo'l bersa .....	50
Ilk sevging .....	10	Sevgan e mishsiz .....	51
Izhor .....	11	Zuxroning iltijosi .....	52
Kundan kun .....	12	Ayting- ayting .....	53
Tik turarman .....	13	Tili bo'lsa .....	54
Men men bo'lib .....	14	Yangi libos .....	55
Shunday dedi qizlar .....	15	Maktub .....	56
Qorako'z .....	16	Unutibman .....	57
Tushimda .....	17	Sinamoq .....	58
Shu e masmi? .....	18	Qo'shiq .....	59
Seni kutdim .....	19	Sog'inib ketdim .....	60
Mezboni bo'ling .....	20	Kechib ketdi .....	61
Ko'klam xabari .....	21	Bahor .....	62
Navbahor .....	22	Sezmading .....	63
Bahor shamoli .....	23	To'kibman .....	64
Noma'lum ketganlar .....	24	Bilsayding .....	65
Chiroyliksan .....	25	Guldasta .....	66
Gul yoshim bor .....	26	Gul bo'lmoq .....	67
Oshiqlar .....	27	Sevsang meni .....	68
Ko'rmabsiz .....	28	Taskin .....	69
Ajratib .....	29	Tug'ilgan kun .....	70
Tong otmoqda .....	30	Oqqan suv .....	71
Sog'inarman .....	31	Kutgayman .....	72
Bu gullar .....	32	Bir gulni suydim .....	73
Aylanib qoldim .....	33	Yangi bahorlar .....	74
Yomg'irli kun .....	34	Cho'chib qarayman .....	75
Birinchi muhabbatim .....	35	Bahorni kutding .....	76
Bir kiyinib .....	36	Bahor boshlandi .....	78
Oyqiz .....	37	Suvda .....	80
Keldim .....	38	Uzoq yashayman .....	82
Malikam .....	39	Istak tog'i .....	86
Rask qilib .....	40	Inson insonmi? .....	87
Bizning sirni .....	41	Lola sayliga .....	88
Shu sevgi .....	42	Lolalar ekaman .....	91
Bahor kelayapti .....	43	Ajrini .....	93

Sevgilim sevadi .....	94	Kashfiyot .....	129
Sizni deb .....	96	Myeni qiy nab .....	131
Go'zal qo'shiq .....	98	Ayting .....	132
Yulduz bo'lib... .....	100	Ko'zlar .....	134
Sen endi kimsan o'zi? .....	102	Hush kelding .....	136
Tojmahal .....	104	Yashaysan .....	138
Kelsang kel .....	106	Kim berdi? .....	140
Shu rostmi? .....	107	Yana bir yil .....	146
Nega? .....	108	Lolaqizg'aldoq .....	148
Qo'shiq bo'lib.. .....	110	Atirgul .....	149
Seni sog'inib borib .....	112	Sizga talpinib .....	150
Bahor keldi .....	114	Bu kunlar .....	151
Dard chekaman .....	116	Intizor turibman .....	152
Ey, yill! .....	118	Sog'intirding .....	153
Ko'z tasdiqlar .....	120	Iltimosim .....	154
Gox baxt, goh g'am .....	122	Salom, hayot! .....	155
Yalinib... .....	124	Qiyo boqib .....	156
Navruz .....	126	Rozi bo'lsang .....	157
		O'sha sizmi? .....	158

---

## Umida ABDUAZIMOVA

### "BOG'LARDA BAHOR"

/She'rlar/

*Muharrir* N.Mirzayeva

*Texnik muharrir:* E. Otamurodova

*Sahifalovchi:* N. Ergasheva

Nashr. lits. AI № 191, 10.05.2012

Bosishga ruhsat etildi 05.06.2013 y. Bichimi 60x84 1/16

Ofset qog'oz'i. Rizograf usulda. Times garniturası.

Shartli bosma tabog'i 1.6. Nashr. hisob tabog'i 0,5. Adadi 1000

"CHASHMA PRINT" MChJ nashriyoti.

100071. Toshkent, Komolon ko'chasi, 13.

"ZAMON POLIGRAF"OK matbaa bo'limalda original-maket tayyorlash,  
chop etish va muqovalash ishlari bajarildi  
30.05.2014

Manzil: Toshkent, Yunusobod tumani, B.Tillayev, 45-uy.

Tel: (99871) 223 12 02, (+99890) 349 01 78, (+99890) 916 81 76.

E-mail: [umida.abduazimova53@mail.ru](mailto:umida.abduazimova53@mail.ru)